

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH FAKULTETI

“LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH” KAFEDRASI

JO'RAEV ABDULLOX NASRULLA O'G'LI

**“INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH
MANBALARI QIYMATINI BAHOLASH”**

5341200 - “Investitsiyalarni moliyalashtirish” ta'lim yunalishi bo'yicha bakalavr darajasini
olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Loyihalarni moliyalashtirish”

kafedra mudiri

_____ i.f.n., dots. E.Nosirov

“ ” _____ 2013 y.

Ilmiy rahbar: _____ o'q. S.Yakubova

“ ” _____ 2013 y.

TOSHKENT – 2013

MUNDARIJA

Kirish	3
I BOB. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarining mazmun-mohiyati va turkumlanishi.....	6
1.1. Iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning o'ri va ahamiyati.....	6
1.2. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari va usullarining turkumlanishi.....	11
1.3. Investitsiya loyihalari moliyalashtirish manbalari qiymatini baholash.....	19
II BOB. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholash amaliyoti tahlili.....	24
2.1. O'zbekistonda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari tahlili.....	24
2.2. Investitsiya loyihalarini markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalar hisobiga moliyalashtirish amaliyoti tahlili..	30
2.3. "O'zgidroenergoqurilish" OAJ investitsiya loyihasini moliyalashtirish manbalari tahlili.....	39
III BOB. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholashni takomillashtirish.....	47
3.1. O'zbekistonda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholash bilan bog'liq muammolar....	47
3.2. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholashni takomillashtirish yo'llari.....	49
Xulosa.....	54
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	58

KIRISH

Malakaviy ish mavzusining dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayotning hamma tomonlarini, ayniqsa, iqtisodiyotni isloh qilishda katta yutuqlarga erishilmoqda. Mamlakatda iqtisodiyotni bozor yo'nalishida o'zgartirish, qayta qurish sohasida tamomila yangi yondashuvlar ishlab chiqildi va uning eng muhim xususiyati islohotlarning har bir bosqichida asosiy maqsadlar va ustuvor yo'nalishlar puxta belgilab olindi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "2012 yilda mamlakatimizning yuqori sur'atlar bilan barqaror o'sishini ta'kidlar ekanmiz, buning boisi va omilini avvalambor iqtisodiyotimizga yo'naltirilgan kapital mablag'lar, investitsiyalar tobora o'sib borayotganida, bu ko'rsatkich yalpi ichki mahsulotga nisbatan 22,9 foizni tashkil etganida, deb hisoblashimiz zarur.

O'tgan yilda iqtisodiyotimizga 11 milliard 700 million dollar miqdorida ichki va xorijiy investitsiyalar jalb etildi yoki bu boradagi ko'rsatkich 2011 yilga nisbatan 14 foizga o'sdi. Jami investitsiyalarning 22 foizdan yoki 2 milliard 500 million dollardan ortig'ini xorijiy investitsiyalar tashkil etdi, ularning 79 foizdan ko'prog'i to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir"¹ deb ta'kidlagan.

Milliy iqtisodiyotning yangi sifat holatiga erishuvi uchun iqtisodiy siyosat sohasida yangi mezonlar va maqsadlar joriy etilishi talab qilinadi. Faqat erishilgan yutuqlarni shunchaki mustahkamlash emas, balki iqtisodiy o'sishning yangi sifatini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholashda investitsiyalarning salmog'ini va samarasini alohida aniqlash talab etiladi. Loyihani amalga oshirishda umumiy samarani olish bilan birga investorning manfaati har doim bir-biriga mos kelmasligidan kelib chiqqan holda loyihaning moliyalashtirish manbalari qiymatini baholashda ikkala tomonning maqsadini hisobga olish va moliyaviy jihatdan loyihani ta'minlashda esa har ikkala tomon

¹Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. – Toshkent: O'zbekiston, 2013. - 7 b.

safarbar etayotgan resurslardan oqilona foydalanish va kelgusida loyihadan kelib chiqadigan oqibatlarga har ikkala tomonning javobgarligini ularning maqsadidan kelib chiqqan holda taqsimlash, xorijiy investorlar milliy tabiiy resurslardan foydalanganligi uchun, loyihani to'liq bajarishdagi javobgarligi ham o'z o'rnini topishi zarur.

Yuqorida keltirilgan fikrlarimiz bitiruv malakaviy ishimizning dolzarbliligini belgilab beradi.

Malakaviy ishning maqsadi va vazifalari. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholashdagi holatini o'rganish va jahon tajribasidan kelib chiqqan holda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari va xususiyatlarini qo'llash yuzasidan taklif- tavsiyalar ishlab chiqish bitiruv malakaviy ishning maqsadi hisoblanadi.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar qo'yildi:

- investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari va ularning xususiyatlarini rivojlantirishni ochib berish;
- investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholashning ob'ektiv zaruratini asoslash;
- investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholashni ochib berish;
- investitsiya loyihalarini moliyaviy va iqtisodiy samaradorligini moliyalashtirish manbalari va xususiyatlariga asoslangan holda baholash;
- investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholashni takomillashtirish bo'yicha taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti va predmeti. Iqtisodiyotimizning turli tarmoqlarida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini va ularni moliyalashtirish manbalari va xususiyatlarini taminlashning asosiy mezonlari hamda baholash tizimi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy-amaliy ahamiyati. Ishning nazariy ahamiyati shundaki, undagi g'oyalar, taklif-tavsiyalardan investitsiya

loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholashga qaratilgan kelgusidagi maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish mumkin. Ishning amaliy ahamiyati shundaki, shakllantirilgan xulosalar va tavsiyalardan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholashga barqarorligini oshirishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi tarkibi. Malakaviy ish tarkibiy jihatdan kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ish matni 61 betdan iborat bo'lib, 17 ta jadval, 4 ta rasmni o'z ichiga olgan.

I BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISH MANBALARINING MAZMUN-MOHİYATI VA TURKUMLANISHI

1.1. Iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning o'рни va ahamiyati

Har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishi investitsiyalarni uzluksiz amalga oshirishni talab qiladi. Investitsiya kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning asosiy negizini tashkil etar ekan, o'z navbatida, bu takror ishlab chiqarishga investor tomonidan investitsiya resurslarining iqtisodiyot sohalariga o'zi ko'zlagan maqsadni, asosan, daromad olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida joylashtirilishini anglatadi.

Dunyo tajribasi ko'rsatishicha, keng iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish natijalari investitsiyalarni, xususan, turli sohalaridagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari va usullarini samarali amaliyotga tadbiq etish bilan ko'proq ta'minlanishi mumkin ekan. Amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining hajmi va miqdoriga qarab iqtisodiyotda yuz berayotgan o'zgarishlar va siljishlar haqida xulosalar chiqarish mumkin. Umuman, bugungi kunda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari va usullari to'g'risida ko'plab gapirilmoqda.

Odatda, har qanday investitsion tadbirkorlik muayyan maqsadga yo'naltirilgan, mukammal darajada yaratilgan investitsiya g'oyasiga asoslanadi. Mukammal darajada shakllantirilgan va asoslangan investitsiya g'oyasi investitsiya loyihasining qaror topishiga olib keladi.

Qandaydir faoliyatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy-boshqaruv va moliyaviy-hisob hujjatlari tizimi yoki bunday faoliyatlar tizimini bayon etuvchi hujjatlar to'plami sifatida qaraladi.

Investitsiya loyihasi tushunchasini uning yo'naltirilgan maqsadini amalga oshirish uchun texnologik jarayonlarni, texnik va tashkiliy hujjatlashtirish jarayonini, ob'ektlarni barpo etish va ishga tushirish jarayonini, moddiy,

moliyaviy, mehnat resurslarining harakatini, shuningdek, tegishli boshqaruv qarorlari va tadbirlarni o'zida mujassamlashtiruvchi tizim sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

To'liq shakllangan, yakuniga etgan investitsiya loyihasini tuzish va amalga oshirish umumiy holda quyidagi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi:

- investitsiya g'oyasini shakllantirish;
- investitsion imkoniyatlarni tadqiq etish;
- investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash;
- shartnoma hujjatlarini tayyorlash;
- loyiha (ishchi) hujjatlarini tayyorlash;
- qurilish-montaj ishlari;
- ob'ektni ishga tushirish va investitsiya loyihasi (iqtisodiy ko'rsatkichlar)

monitoringini olib borish.

Investitsiya loyihasi o'z maqsadi, yo'nalishi, amal qilish sohasi, muddati va chegarasiga ega bo'lgan alohida faoliyat turi hisoblanadi. U tashkiliy, huquqiy, ijtimoiy, ekologik, iqtisodiy jihatdan to'liq va mukammal hisob-kitoblar yordamida asoslangan yuridik hujjat hisoblanadi.

Investitsiya loyihasining boshqa hujjat va «loyiha»lardan asosiy farqi shundaki, u haqiqiy hujjat sifatida qaror topishi uchun uning barcha tomonlari maxsus usullar yordamida keng va aniq hisob-kitoblar bilan baholanadi. Shuningdek uning amalga oshirilishi muayyan miqdordagi mablag'larni safarbar etishga asoslanadi.

Investitsiya loyihasi investitsiya g'oyasining shakllanishidan vujudga kelar ekan, uning murakkab jarayonlar asosida yaratilishida turli tadqiqotlar va tahlil etish ishlarini olib boruvchi mutaxassislarning asosiy o'rin egallashlarini alohida e'tiborga olmoq zarurdir. Investitsiya loyihasining o'ziga xos xususiyati uning amalga oshirilishi moliyalashtirishning turli shakllariga mos tushishi bilan izohlanadi. Bunda investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun turli manbalardan mablag'larni jalb etish mumkinligi uning qulayligini, foydaliligini, samaradorligini va afzalligini oshiradi.

Investitsiya loyihasi mazmun-mohiyatini investitsiya tushunchasiga bog'lagan holda tushunish o'rinlidir va shunga muvofiq, uni, bozor iqtisodiyoti talablarini inobatga olgan holda, kelajakda foyda (daromad) olish maqsadida kapital qo'yilmalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan uzoq muddatli kompleks tadbirlar majmui, deb baholash mumkin. Shu bilan birga investitsiya loyihasi resurslar va muayyan vaqt bilan cheklanadi hamda qo'yilgan maqsadga erishishni ko'zda tutadi. U cheklangan davr davomida, belgilangan byudjet hisobidan, qo'yilgan vazifalarni hal qilishga qaratilgan aniq maqsadni nazarda tutadi. Investitsiya loyihasi boshqa tadbirlar majmuasidan o'zining maqsadi, belgilangan vaqt mobaynida amalga oshirish imkoniyatlari hamda hayotiy tsiklga egaligi bilan ajralib turadi.

Umuman olganda, investitsiya loyihasi investitsion tadbirkorlik va tashabbusning mevasi, natijasi sifatida yaratilgan investitsion hujjat bo'lib, investitsiyalar bilan ta'minlangan har qanday tadbirlar majmuasi hisoblanadi. Ya'ni u cheklangan muddat va vaqt mobaynida foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadidagi bir-biri bilan bog'liq, bir-biri bilan aloqadorlikdagi murakkab tadbirlar yig'indisidir.

Investitsiya loyihasini moliyalashtirish manbalari va usullarini amal qilish sohasi va darajasiga ko'ra 40-50 yilgacha muddat bilan ishlab chiqilishi mumkin. Undagi hisob-kitoblar esa shu davrga mo'ljallangan bashoratlar asosida tizimli amalga oshiriladi. Bunday loyihalar, ko'proq, davlat ahamiyatiga molik va hukumat mablag'lari evaziga moliyalashtiriladigan ob'ektlarni ishga tushirish yoki muayyan sohaning tizimli o'zgartirilishini bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadida keng qamrovli va uzoq yillarga mo'ljallangan bashoratlar asosida ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Bunga mamlakat bo'yicha kommunikatsiya tarmog'ini tizimli zamonaviylashtirishga, aholini elektr energiyasi bilan ta'minlashga mo'ljallangan, makrodarajadagi ahamiyatga ega bo'lgan investitsiya loyihalari (ko'proq, davlat investitsiya loyihalari) misol bo'la oladi.

Mamlakatimizda bugungi kunda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari, asosan, import o'rnini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan maxsulotlarni ishlab chiqarishga qaratilgan bo'lib, shuning bilan birgalikda ichki bozorni mahalliy xom ashyolarga tayanilgan holda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to'ldirishga qaratilmoqda. Bu esa respublikada milliy ishlab chiqarishning yanada rivojlanishi, iqtisodiy faol mulkdorlar sinfining tobora shakllanib borishi, ishbilarmonlik, tadbirkorlikning, xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning taraqqiy topishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan holda ular istiqboli uchun ham o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Bu holat, eng avvalo, mamlakatda mazkur yo'nalishda davlat tomonidan maqsadli, faol va samarali investitsiya siyosatini yuritilishi, investitsiya jarayonlarining rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarning yaratib berilayotganligi hamda uni tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning ta'sirchan mexanizmi ishlab chiqilganligi bilan uzviy bog'liqdir.

O'zbekistonda investitsiya loyihalari, avvalo, ustuvor tarmoqlarga, ya'ni neft va ximiya sanoati, transport, energetika, er osti qazilma boyliklarini ishlab chiqarishga, qurilish, telekommunikatsiya tarmoqlariga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga va ularni keng qayta ishlashga, turizm sohasini rivojlantirishga qaratilishi lozim. Mazkur investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun, eng avvalo, qulay investitsiya muhiti barpo etilishi shart hisoblanadi. Qulay investitsiya muhiti investorning u yoki bu davlat iqtisodiyotiga mablag' sarflash uchun shart-sharoitlarning qulayligini, ya'ni siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarning yaratilganligini baholashdagi barcha hisob-kitoblar majmuasini o'z ichiga oladi. Investitsiya muhitining jozibadorligi unga ta'sir etuvchi omillar darajasiga bog'liqdir.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning ahamiyati benihoya katta bo'lib, u quyidagilar bilan izohlanadi:

birinchidan, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljalangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;

ikkinchidan, import o'rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish va pirovardida aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi;

uchinchidan, kichik biznesni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadalashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi;

to'rtinchidan, korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi;

beshinchidan, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga ko'maklashadi va h.k.

Milliy iqtisodiyotda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholashni muvafaqiyatli amalga oshirish yuqori texnik saviyadagi tayyor mahsulotlar ulushi oshirilishiga imkon beradi. Bu esa quyidagi jihatlarga bog'liq bo'ladi: xorijiy davlatlardagi korxonalar bilan O'zbekistondagi eksport qiluvchi korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalarining shakllanishiga ko'maklashishi; yuqori texnologiya va ilmtalab qiluvchi mahsulotlar ishlab chiqarilishi soha va soha ichi tizimi yaxshilanishiga xizmat qiladi; eksportning intellektual mulk ob'ektlari litsenziyalarini hamda nou-xau shaklida texnik-tijorat sirlarini sotish, injiniring va lizing sohalarida xizmatlar ko'rsatish kabi turlarini rivojlantirish yo'li bilan respublikamizda erishilgan ilmiy-texnik yutuqlarning jahon xo'jaligi aylanmasiga kirib borishini tezlashtirish; ilmiy ishlanmalarga, xususan, amaliy fan va texnologiyalar transferti sohasidagi ilmiy ishlanmalarga bozor yo'nalishini beruvchi shart-sharoit yaratuvchi innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini ishlab chiqish; innovatsiya jarayonini davlat tomonidan va tijorat usulida qo'llab-quvvatlashning eng maqbul uyg'unlashuvi asosiy yo'llarini belgilab olish hamda ilmiy-texnik ishlanmalarni tijorat ahamiyatiga molik natijalar darajasigacha etkazish; o'zbek olimlari va mutaxassislarning chet eldagi etakchi institutlar, tashkilotlar va firmalar bilan hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirish;

yuqori darajali marketing tadqiqotlari o'tkazish. Tijorat va texnologiya menejmenti sohasidagi yutuqlarni o'rganish, xorijiy bozorlarning kon'yunkturasi, sig'imi hamda raqobatchilarning narx siyosati, kooperatsiya, qo'shma korxonalar tashkil etish bo'yicha hamkorlar o'ldirish yuzasidan tahliliy ma'lumotlarni o'rganish.

Xulosa qilib aytganda, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholash usullari samarali o'zlashtirish orqali rivojlangan bozor iqtisodiyotini barpo etish bilan bog'liq ko'pgina vazifalarni hal etishga muvaffaq bo'lamiz. Uning amalga oshirilishi birgina qo'shimcha faoliyat va ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilishini ta'minlab qolmasdan, balki jamiyat hayotining haqiqiy darajasini ko'rsatib beruvchi aholi turmush farovonligining oshishiga va davlat boyligining ko'payishiga hamda uning iqtisodiy qudratini oshirishga xizmat qiladi.


1.2. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari va usullarining turkumlanishi

Iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish faol investitsiya siyosatini o'tkazish bilan chambarchas bog'liqdir. Investitsiya bazasini rivojlantirish va chuqurlashtirish islohotlar strategiyasining muhim shartidir. Iqtisodiyot tuzilishi qurilishining belgilangan yo'nalishlari eksport imkoniyatining kengaytirilishiga, baquvvat investitsiya siyosatini o'tkazish yo'li bilangina erishish mumkin. Buning uchun o'z sarmoyalarimizni ham, tashqi kreditlarni ham bevosita investitsiyalar va ularning barcha manbalarini ham ishga solish zarur.

Investitsiya loyixalarini moliyalashtirish usullari va manbalari xususida so'z yuritishdan avval ular o'rtasidagi farqni anglab olish zarur bo'ladi. Investitsiya loyixalarini moliyalashtirish usullari va manbalari o'rtasidagi asosiy farq shundan iboratki, investor tomonidan tanlab olingan moliyalashtirish usuli orqali moliyalashtirish manbasi yuzaga keladi. Misol tariqasida, investor tomonidan qabul qilingan qaror asosida tanlangan "kreditlashtirish" usuli orqali

“qarz mablag’lari” manbai, yoki “aksionerlashtirish” usuli orqali “jalb qilingan mablag’lar” manbai yuzaga kelishini keltirib o’tishimiz mumkin.

Umumiy hisobga olganda hozirgi kunda amaliyotda mavjud bo’lgan investitsion loyihalarni moliyalashtirish usullari va manbalarini quyidagi 1-rasmda to’liq ko’rishimiz mumkin:



1-rasm. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish usullari va manbalari²

Yuqorida keltirib o’tilgan investitsiya loyixalarini moliyalashtirishning har bir usuli va manbalasi hususida alohida so’z yuritadigan bo’lsak, amaliyotda investitsiya loyixalarini moliyalashtirishda investorlar tomonidan eng ko’p qo’llaniladigan usullardan biri bu o’z – o’zini moliyalashtirish usulidir. Bu usulda moliyalashtirish manbalarini qaerdan olish kerak degan muammo

² Nazariy ma’lumotlar asosida talaba tomonidan shakllantirildi

vujudga kelmaydi va uning bankrotlik xavf-xatari (riski) kamayadi. Odatda mazkur usuldan loyixani moliyalashtirish uchun etarli mablag'larga ega bo'lgan holatda yoki yirik bo'lmagan ko'lamdagi investitsiya loyixalarini moliyalashtirish jarayonida qo'llaniladi. O'z-o'zini moliyalashtirish korxonani rivojlanganligi va uning yaxshi moliyaviy holatini bildiradi va yana raqobatchilardan ma'lum bir ustunlikka ega bo'ladi, boshqa korxonalarda bunday imkoniyat bo'lmashligi mumkin.

Kapital moliyalashtirish manbalarini ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Markazlashtirilgan qo'yilmalar, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat byudjeti va davlat byudjetidan tashqari fondlar mablag'lari;
- tashqi qarzlar limitlaridan kelib chiqib hukumat kafolati ostidagi chet el investitsiyalari va kreditlari.

2. Markazlashtirilmagan kapital qo'yilmalar, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- korxonalar mablag'lari, shu jumladan, qo'shma korxonalar, xorijiy korxonalar va xususiy korxonalarning mablag'lari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining norezidentlarining mablag'lari;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari mablag'lari, banklarning, shu jumladan, xorijiy banklarning kreditlari;
- aholi mablag'lari.

Shuni ta'kidlash lozimki, agar korxonaning texnik rivojlanish darajasi past bo'lib, bu korxonaning raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga to'sqinlik qilib, korxonani bankrotlikka olib kelsa, bunday holda, foydani korxonani rivojlantirish uchun yo'naltirish lozim. Shunday qilib, korxona foydasi uning iqtisodiy va ijtimoiy darajasiga asoslangan holda taqsimlanishi lozim.

Amortizatsiya ajratmalari investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbai sifatida.

Amortizatsiya - asosiy vositalarni va nomoddiy aktivlarni normativ xizmati muddati davomida qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulotga o'tkazib borish jarayonidir.

Amortizatsiya ajratmalari investitsiyalarni moliyalashtirishning muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Ular qayta ishlab chiqarishni (ya'ni takror ishlab chiqarish) tashkil qilib qolmay, balki ma'lum darajada ularni kengaytirishga ham mo'ljallangan bo'ladi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida amortizatsiya korxonaning investitsiya ehtiyojini 70-80%ini qondiradi. Mamlakatimizni bozor iqtisodiyotiga o'tishi bilan amortizatsiya ajratmalarini investitsiyalarni moliyalashtirish manbai sifatidagi ahamiyati ham o'sdi. Bu birinchi navbatda, asosiy fondlarning tez-tez qayta baholanishi va ko'p korxonalarning zararga ishlayotganligi bilan bog'liq.

Investitsiyalarni moliyalashtirish manbai sifatida boshqalariga nisbatan ustunlik tomoni shundaki, korxonaning har qanday moliyaviy xolatida, bu manba o'z o'rniga ega bo'ladi va doimo korxona ixtiyorida bo'ladi.

Korxonaning investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning ichki moliyaviy resurslari bo'lib quyidagilar xisoblanadi:

- xo'jalik usulida bajarilgan qurilish-montaj ishlaridan kelgan foyda (qilingan iqtisod);
- asosiy vositalarni likvidatsiya qilingan vaqtda olingan yaroqli materiallar;
- aylanma mablag'larning aylanishini tezlashishi xisobiga, muomiladan bo'shatilgan aylanma mablag'larning bir qismi;
- korxonaning o'zida tashkil qilingan maxsus rezerv fondlari va boshqalar.

Investitsion loyihalarni baholashda shuni hisobga olish lozimki, ishlab chiqarilgan mahsulot realizatsiyasidan, soliqlar ayirib tashlanadi. Ammo, bu hisoblangan soliqlar, amortizatsiya ajratmalari singari ma'lum muddat korxona oborotida qo'shimcha ishlatilishi va vaqtincha moliyaviy resurs bo'lishi mumkin.

Agar korxona investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda o'z mablag'lari etarli bo'lmasa, bunday holda, korxona mablag'larni qimmatli qog'ozlar chiqarish yoki bank krediti orqali jalb qilishi mumkin. Investitsion loyihalarni moliyalashtirishning keng tarqalgan va moliyalashtirishning asosiy manbalaridan bo'lib, qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar chiqarish, investitsiyalarni moliyalashtirishda markazlashgan mablag'lar va bank kreditlarining hissasini pasayishiga olib keladi. Qimmatli qog'ozlar bozori va kredit bozori, pul mablag'lariga ehtiyoji bo'lgan tarmoqlarga (korxonalarga) pul mablag'larini taqsimlab korxonalarning moliyaviy holatini barqarorlashtiradi. Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan xarid qilinadigan qimmatli qog'ozlar ichida keng tarqalgan turi aktsiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqariladigan aktsiyalardir.

Aktsiya - bu korxona mulkiga aktsiyadorlarning qo'shgan xissasini tasdiqlovchi hujjat. Aktsiyalar bo'yicha daromadlar dividend shaklida olinadi. Aktsiyalar chiqarish orqali zarur bo'lgan pul mablag'lari jalb qilinadi. Aktsiyadorlik kapitalini shakllantirishda ikki xil aktsiya emissiya qilinadi: oddiy va imtiyozli aktsiyalar.

Oddiy aktsiya - aktsiyadorlik jamiyatini boshqarishni huquqini beradi (aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishida qatnashish, dividend olish xuquqi, jamiyatni likvidatsiya qilayotganda aktsiyalar qiymatiga teng miqdorda korxona mulkini olish). Barcha oddiy aktsiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi lozim.

Aktsiyadan tashqari korxona obligatsiya chiqarish yo'li bilan mablag'larni jalb etadi.

Obligatsiya - bu qarzdorlik majburiyati bo'lganligi sababli aktsiyaga nisbatan risk kamroq bo'ladi va obligatsiyalar shu sababli aktsiyaga nisbatan tezroq sotiladi. Bu esa korxonaga zarur mablag'larni bir muncha qisqa vaqt ichida to'plash imkonini beradi. Obligatsiyaning aktsiyaga nisbatan riski kamroq bo'lganligi sababli, obligatsiyaga to'lanadigan foiz aktsiya bo'yicha dividendga nisbatan pastroq bo'ladi. Korxona uchun esa aktsiya chiqarish, obligatsiya chiqarishga nisbatan qulayroqdir. Chunki foyda miqdoriga qarab, dividendni o'zgartirishi mumkin, obligatsiyada esa foiz qat'iy belgilangan bo'ladi.

Investitsion loyihani moliyalashtirishning qarzga olingan manbai bo'lib, bank kreditlari, ipoteka ssudalari, sug'urta kompaniyalaridan olingan qarzlar yoki byudjetdan tashqari fondlardan olingan kreditlar hisoblanadi.

Ushbu, moliyalashtirish manbalari ma'lum muddatga qaytarish va to'lovlik shartli asosida beriladi. Investitsion loyihalarni kredit asosida moliyalashtirishning afzalroq tomoni shundaki, faoliyat yuritayotgan korxona uchun modernizatsiya, rekonstruktsiya ishlari va kerakli me'yorda ishlab chiqarish quvvatini ta'minlashda, ya'ni korxona ishlab chiqarish faoliyatni kengaytirmoqchi bo'lsa, kreditdan foydalangani ma'qul, chunki, ishlab turgan korxona aktivlari ushbu kreditlar qaytarilishiga garov bo'lib xizmat qilishi mumkin.

1-jadval

Investitsiya loyihalarining moliyalashtirish manbalari tasnifi³

Tasniflash belgisi	Manbalar shakllari
Mulkchilik munosabatiga ko'ra	O'zlik mablag'lari; Jalb qilingan mablag'lar; Qarz mablag'lari.
Mulkchilik shakllariga ko'ra	Davlat investitsiya resurslari (byudjet va nobyudjet fondlar mablag'lari, aktsiya paketlari va boshqa davlat mulkchiligidagi aylanma va asosiy fondlari, mol-mulkklari va va shu kabilari); Investitsion, xususan, tijorat va notijorat xarakteridagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, jamoat birlashmalari, jismoniy shaxslar, jumladan, chet ellik jismoniy shaxslarning moliyaviy resurslari; Xorijiy investorlar investitsiya resurslari (chet el davlatlari, xalqaro moliya va investitsiya institutlari, alohida korxonalar, institutsional investorlar, banklar va kredit tashkilotlari).
Mulkdorlar darajasiga ko'ra	Davlat darajasida: Byudjet va nobyudjet fondlar o'z mablag'lari Davlat krediti - bank va sug'urta tizimining jalb qilingan mablag'lari; Qarz mablag'lari: xalqaro davlat qarzdarlari ko'rinishidagi (davlatning tashqi qarzlari) qarz mablag'lar; davlat obligatsiyalari, qarz, tovar va boshqa zaymlar (davlatning ichki qarzlari). Korxona darajasida: O'z mablag'lari (foyda, amortizatsiya ajratmalari, zararlarning sug'urta qoplamalari, asosiy, aylanma mablag'larning faoliyatdagi ortiqcha ishlatilmayotgan qismi va h.k.); Jalb qilingan mablag'lar, jumladan badallar va hayriyalar, aktsiyalar sotishdan olingan mablag'lar va boshqalar; Byudjet, bank va tijorat ko'rinishidagi qarz mablag'lari (foizli va foizsiz, qaytariladigan va qaytarilmaydigan asosdagi). Investitsiya loyihalari darajasida: Byudjet va nobyudjet fondlar mablag'lari; Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mablag'lari-milliy korxonalar va tashkilotlar, jamoat institutsional investorlari; Turli shakllardagi xorijiy investitsiyalar.

³ Uzoqov A., Kenjaev N. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma.- T.: Iqtisod-moliya, 2007.-194 b.

Mulkchilik munosabatiga ko'ra investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarini o'zlik, qarz va jalb qilingan mablag'larga ajratib o'rganishimiz mumkin (1-jadval).

O'zlik, qarz, jalb qilingan mablag'lar tarkibiga qanday mablag'lar kirishini esa 1-jadvaldan ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Mulkchilik shakllariga ko'ra davlat, xususiy va xorijiy investorlar mablag'lariga ajratib o'rganishimiz mumkin.

Davlatning investitsion resurslariga turli soliqlar va majburiy yig'imlardan tashkil topgan solikli daromadlari soliqsiz daromadlarining bir qismi, xususiy investitsion resurslarga iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlarining turli fondlarda jamlangan mablag'lari va jismoniy shaxslarning mablag'lari kiradi. Xorijiy investitsion resurslarga chet el davlatlari, korxolari, xalqaro miliyaviy institutlar mablag'lari kiradi.

Mulkdorlar darajasiga ko'ra davlat, korxona va loyiha darajasida o'rganishimiz bevosita har bir investitsiya iste'molchisining imkoniyatini boholashga xizmat qiladi.

2-jadval

Investitsiya loyihalarining moliyalashtirish manbalari tarkibi⁴

Guruhi	Turi	Manblarning guruhdagi tashkiliy tarkibi
Davlat mablag'lari (resurslari)	O'zlik	davlat byudjeti
		ichki moliyaviy byudjetlar
		byudjetdan tashqari fondlar
	jalb qilingan	davlat kredit tizimi
		davlat sug'urta tizimi
	Qarz	davlat qarzdorligi (davlat zaamlari, tashqi qarzar, xorijiy kreditlar va boshqa shu kabilar)
Korxonalar mablag'lari (resurslari)	O'zlik	korxonaning o'z investitsion resurslari
	jalb qilingan	badallar, hayriyalar, aksiyalar chiqarish, aksiyalarning qo'shimcha emissiyasi
		rezidentlar-investitsiya kompaniyalari investitsiya resurslari, jumladan, payli investitsion fondlar
		rezidentlar-sug'urta kompaniyalari investitsiya resurslari
		rezidentlar-nodavlat nafaqa fondlari investitsiya resurslari
	Qarz	bank va tijorat kreditlari hamda byudjet kreditlari va maqsadli kreditlar
		chet ellik investorlar investitsiya resurslari, jumladan, tijorat banklari, xalqaro moliyaviy institutlar, institutsional investorlar, xorijiy korxonalar

⁴ A.Uzoqov, E.Nosirov, R.Saidov, M.Sultonov "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va ularning monitoringi" Toshkent "Iqtisod-Moliya", 2006 y. 77b

Davlat har yili mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga asoslangan holda iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun "Investitsiya dasturi" ishlab chiqadi. Bu dasturga ko'ra davlat iqtisodiyotning qandayo ustuvor tarmoqlariga e'tibor qaratayotganligi ko'rinadi. Davlat bu mablag'larini qaerdan olishi mumkinligini bilish muhimdir. Shuningdek, xususiy sektorning investitsiyalash borasida ulushi o'sib borayotgan bir paytda ularning qanday mablag'lar manbaiga egaligini va qanday mablag'lardan foydalana olishi mumkinligini o'rganish ularning loyihaviy moliyalashtirishdagi ta'sischi, kreditor, homiy sifatidagi ishtirokini kuchaytiradi va buni muayyan korxona mavjud bo'lishi, jalb qilishi mumkin bo'lgan mablag'lar doirasini ochib berish loyihaviy moliyalashtirishni kengayishini ta'minlab beradi (3- jadvalga qarang).

3-jadval

Korxonaning investitsiya resurslari tarkibi⁵

Resurslar guruhlar	Guruhdagi resurslar turlari
Ichki, xususiy kapital tarkibiga kiruvchi	✓ foyda ; ✓ foyda hisobiga shakllanuvchi maxsus fondlar; ✓ amortizitsiya ajratmalari; ✓ boshqa (pulsiz ko'rinishdagi) resurslar: ✓ er uchastkalari; ✓ asosiy fondlar; ✓ sanoat mulki va boshqalar.
Jalb qilingan, xususiy kapital tarkibiga kiritiluvchi	✓ Aktsiyalar emissiyasi va joylashtirilishi hisobiga jalb qilingan moliyaviy mablag'lar, jumladan: ✓ ochiq holda (ommaviy) joylashtirish; ✓ yopiq holda (xususiy) joylashtirish; ✓ Yuqori turuvchi xolding va aksioner kompaniyalari tomonidan ajritiladigan mablag'lar; ✓ Grantlar va hayriya badallari; ✓ Davlat subsidiyalari, jumladan: ✓ to'g'ri; ✓ egri (soliq imtiyozlari va boshqa imtiyozlar ko'rinishida)
Jalb qilingan, xususiy kapital tarkibiga kiritilmaydigan	✓ Tijorat banklari kreditlari va qarzlar; ✓ Nobank muassasalar tomonidan taqdim etiladigan pul shaklidagi kreditlar, qarzlar, ssudalar. ✓ Davlat kreditlari va zaymlari, jumladan: ○ to'g'ri; ○ egri (soliqli investitsion kreditlar shaklida); ✓ Tijorat kreditlar (ta'minotchi va pudratchilar tomonidan etkazib beriladigan mashina, asbob-uskuna va boshqa investitsion tovarlar) ✓ Obligatsiyalar emissiyasi va joylashtirilishi hisobiga jalb qilinadigan moliyaviy mablag'lar. ✓ Lizing asosida jalb qilinadigan mashinalar, asbob-uskunalar va boshqa pusiz shakldagi resurslar, jumladan: ○ operativ lizing asosida; ○ moliyaviy lizing asosida.

⁵ Nazariy ma'lumotlar asosida talaba tomonidan shakllantirildi

Korxonalar mablag'larni o'zlari amalga oshirayotgan loyihaga o'z mablag'laridan tashqari ulush va qarz munosabatlari sifatida jalb qilish mumkin. Buni yuqorida ham guvohi bo'ldik.

Yuqorida ko'rib o'tgan belgilar tasnifi bo'yicha turkumlangan investilarni moliyalashtirish manbalarini amaliy holatini tahlil qilib, investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishda ishtiroki yuqori bo'lishi mumkin bo'lgan manba va moliyalashtirish qatnashuvchisini baholashimiz mumkin.

Fikrimizcha, investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari tarkibiy tuzilishini o'zgartirishning bosh yo'nalishi byudjet mablag'larini bu faoliyatga jalb etishning kamaytirilishi va korxonalarning o'z mablag'lari, xususiylar investitsiyalar va qarzga olingan mablag'lar ulushining ortishidir.

1.3. Investitsiya loyihalari moliyalashtirish manbalari qiymatini baholash

Korxona uchun investitsion qarorlar qabul qilish murakkab vazifalardandir. Bunda asosiy mezon korxona qiymatlarini oshirish mezonlariga qaratiladi. Uning omillari bo'lib korxona daromadlari o'sishi, moliyaviy risk yoki ishlab chiqarish harajatlarning kamayishi, korxona ishlari samaradorligi darajasini oshirish hisoblanadi.

Real investitsiya loyihalari bo'yicha bunday natijalarga erishish uchun, har qanday loyihaning samaradorligini baholash zarur bo'ladi. Shunday qilib investitsiya loyihalarining samaradorligini aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Chunki loyihaning samaradorligini baholash darajasidan qo'yilgan kapitalning qaytib kelish muddati, korxonaning rivojlanish sur'ati hamda boshqa ijtimoiy- iqtisodiy muommalarni hal qilish imkonini beradi.

Chet el mamlakatlarining tajribasini, shu bilan birga YUNIDO⁶ (United Nations Industrial Development Organization) tavsiyalarini hisobga olgan holda


⁶YUNIDO - Birlashgan Millatlar Tashkilotining tashkiliy bo'linmasi bo'lib, uning asosiy vazifasi BMTga a'zo mamlakatlar sanoati rivojlanishiga yordam berishdir.

investitsiya loyihalarining samaradorligini baholash ikki mezon asosida, ya'ni moliyaviy va iqtisodiy baholash orqali amalga oshiriladi.

Investitsiya loyihasi samaradorligini baholashning bu ikkala mezoni ham bir-birini to'ldirib turadi.

Boshqacha aytganda, moliyaviy baholash vazifasi, loyihani belgilangan muddatlarda amalga oshirish uchun, uning jami moliyaviy majburiyatlarini bajarishga korxonaning etarli moliyaviy resurslari bo'lishini belgilashdir.

Iqtisodiy baholash esa, investitsiya loyihasining potentsial qobiliyati, shu loyihaga qo'yilgan mablag'larning qiymatini saqlab qolishda va ularning o'sishi sur'atini etarli darajasini yaratib berishda foydalaniladi.



2-rasm. Investitsiya loyihasi samaradorligini baholash⁷

⁷ A.Uzoqov, E.Nosirov, R.Saidov, M.Sultonov "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va ularning monitoringi" Toshkent "Iqtisod-Moliya", 2006 y. 89b.

Taqdim etilayotgan ob'ekti investitsiyalashni moliyaviy baholash (yoki moliyaviy asoslanganlik bahosi) investitsiya jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Investor moliyaviy holati noma'lum bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxslar bilan hech qanday munosabatlar olib bormaydi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda, korxonalar moliyaviy hisobotlarini e'lon qilish normal holat hisoblanadi va ular har xil to'plamlar holatida chop etiladi. Bu to'plamlar orqali kompaniyalarning moliyaviy holati to'g'risida ma'lumotlar olish mumkin.

Investitsiya loyihasining moliyaviy asoslanganlik bahosi pul oqimlari to'g'risidagi hisobot yordamida hisoblanadi (4-shakl). Bu esa korxonaning mablag'lari holati to'g'risida aniq ma'lumot olishni, shu bilan birga bu mablag'larning investitsiya loyihasiga etarligini ko'rsatib beradi. (- jadval).

Korxona pul oqimlari asosan quyidagilardan tashkil topadi:

- operatsion faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi (4-shakl, 050-qator);
- investitsion faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi (4-shakl, 100-qator);
- moliyaviy faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi (4-shakl, 180-qator);

Pul mablag'lari bo'yicha salbiy saldo chiqqanda, qo'shimcha o'z mablag'lari yoki qarz mablag'larini jalb etishni taqozo etadi va bu mablag'lar investitsiya loyihasini moliyaviy baholash hisob-kitobida aks ettirilishi kerak.

Loyihaning maqsadi, shartlari va variantlarini tanlab olishga ko'ra moliyaviy baholash (yoki moliyaviy asoslanganlik bahosi), investitsion loyihalash jarayonida qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanish mumkin. (masalan, 1 va 2 shakl ma'lumotlari).

Investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning ikkinchi usuli, bu loyihani iqtisodiy baholash hisoblanadi.

Loyihani iqtisodiy baholash o'z navbatida ikki guruhga bo'linadi:

- oddiy (yoki statistik) baholash;
- diskontlashga asoslangan baholash.

Birinchi guruhga quyidagilar kiradi:

- investitsiya qoplash muddati (Payback Period, PP);

- investitsiya samaradorligi koeffitsienti (Accounting Rate of Return, ARR).

4-jadval

Korxona pul oqimi harakteristikasi⁸

Korxona faoliyati turi	Foyda (kirim)	Harajatlar (chiqim)
Investitsiya faoliyati	a) asosiy vositalarni sotish. b) nomoddiy aktivlarni sotish. v) uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotish. g) oborot kapitalining kamayishi hisobiga tushumlar	a) kapital qo'yilmalar. b) nomoddiy aktivlarni sotib olish. v) oborot kapitalining o'sishi hisobiga harajatlar. g) uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotib olish.
Operatsion faoliyat	a) mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan kelib tushgan pul mablag'i. b) operatsion faoliyat ning boshqa pul tushumlari.	a) material tovar, ish va xizmatlar uchun mol etkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'lari. b) xodimlarga va ular nomidan to'langan pul mablag'lari. v) operatsion faoliyat ning boshqa pul to'lovlari.
Moliyaviy faoliyat	a) aktsiyalar chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan boshqa instru mentlardan kelgan pul tushumlari. b) olingan foizlar va dividendlar. g) moliyaviy faoliyat ning boshqa pul tushum lari, shu jumladan qarzlar bo'yicha pul tushumlari	a) xususiy aktsiyalar sotib olingandagi pul to'lovlari. b) to'langan foizlar va dividendlar. v) uzoq va qisqa muddat li kreditlar va qarz lar bo'yicha to'lovlar. g) lizing bo'yicha to'lov lar. d) moliyaviy faoliyat ning boshqa to'lovlari.

Ko'pchilik hollarda amaliyotda investitsiya samaradorligi koeffitsientini (ARR) o'rniga foydaning oddiy normasi (return on investments, ROI) koeffitsientidan foydalaniladi. Lekin bu ikki koeffitsienti hisoblash algoritmi bir xildir. Ushbu usulning asosiy afzalliklari koeffitsientlarni aniqlashda bajariladigan hisob-kitob ishlarining qulayligi, oddiyligi va tushunarligidadir. Bu guruh koeffitsientining kamchiliklari shundan iboratki, bunda investitsiyalanadigan loyiha bo'yicha vaqt omili hisobga olinmaydi.

Ikkinchidan, investitsiya kapitalining qoplanishi ko'rsatkichiga asos qilinib, foyda olinadi, ammo amaliyotda amortizatsiya ajratmalari ham investitsiya kapitalining qoplanishi uchun manba bo'ladi. Shuning uchun investitsiya qoplash muddati koeffitsientini (RR) hisoblashda, albatta amortizatsiya ajratmalarini hisobga olish zarur.

⁸ A.Uzoqov, E.Nosirov, R.Saidov, M.Sultonov "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va ularning monitoringi" Toshkent "Iqtisod-Moliya", 2006 y. 91b.

Uchinchidan, bu koeffitsientlar investitsiya loyihasi bo'yicha bir tomonlama baholashni beradi, ya'ni u foyda va investitsiya summalari miqdoriga asoslangan bo'ladi. Investitsiya loyihalarining samaradorligini chuqur tahlil etish uchun ikkinchi guruh iqtisodiy baholash koeffitsientlaridan foydalaniladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- sof keltirilgan qiymat (Net Present Value, NPV) yoki sof joriy qiymat;
- investitsiya rentabelligi indeksi (Profitability Index, PI);
- foydaning ichki me'yori (Internal Rate of Return, IRR);
- investitsiya diskontlangan qoplash muddati (Discounted Payback Period, DPP).

Xulosa qilib shuni aytish joizki, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholashda moliyaviy va iqtisodiy baholashdan foydalaniladi. Bu usullar bir-biri to'ldirib turadi va investitsiya loyihasining qiymatini aniq va to'liq baholashda muhim rol o'ynaydi.

II BOB. MILLIY IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI QIYMATINI BAHOLASH AMALIYOTI TAHLILI


2.1. O'zbekistonda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari tahlili

Respublika iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarida investitsiya loyihalarini amalga oshirishning zaruriyati quyidagilardan kelib chiqadi: ishlab chiqarish quvvatlarining jismoniy va ma'naviy eskirganligi, ularning qayta tiklashga yoki texnik jihatdan qayta jihozlashga yoki umuman yangilashga oid bo'lib qolganligi; sanoat tarmog'ida moddiy texnika bazasining o'ta pastligi va ko'pgina zarar ko'rib ishlaydigan korxonalarning mavjudligi; respublika milliy daromadida jamg'arish bilan iste'mol o'rtasidagi nisbatning iste'mol tomonga ko'plab sarflanayotgani va jamg'arishning investitsiya manbai sifatida kamayib borayotganligi; O'zbekistonning tabiiy boyliklarga boyligi va bu erda ko'plab qayta ishlovchi korxonalarni qurish imkoniyating mavjudligi; aholi sonining o'sib borayotganligi (mehnat resurslari) va kichik zamonaviy ixcham korxonalarini barpo etish, ularni mehnat resurslarining manbai bo'lmish qishloqqa yaqinlashtirish zarurligi; respublika eksportida xom ashyo salmog'ini kamaytirish va ko'plab tayyor mahsulotlar chiqarish imkoniyatiga ega bo'lish zarurligi va boshqalar.

Mamlakatimizda faol investitsiya siyosati olib borilishi natijasida 2011 yilda o'nlab zamonaviy korxonalar ishga tushirildi. Jumladan, "Jeneral Motors Pavertreyn O'zbekiston" qo'shma korxonasida yuqori texnologiyalar asosida avtomobil dvigatellari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, avtomobil generatori va kompressorlari ishlab chiqarish bo'yicha quvvatlar barpo etildi, energiyani tejaydigan lampalar ishlab chiqarish bo'yicha uchta loyiha amalga oshirildi. Shular qatorida "Zenit elektroniks" qo'shma korxonasida "Samsung"

kir yuvish mashinalari ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Ayni paytda maishiy gaz plitalari, konditsionerlar, elektr pilesoslar va bir qancha boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" unitar sho'ba korxonasida suyultirilgan gaz ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish maqsadida propan-butan aralashmasi qurilmasining birinchi navbatini, Samarqand viloyatida "MAN" yuk tashish mashinalari ishlab chiqarish bo'yicha yangi majmuaning dilerlik markazini bunyod etish ishlari yakuniga etkazildi. Navoiy issiqlik elektr stansiyasida bug'-gaz qurilmasini barpo etish, O'zbekiston-Xitoy gaz quvurining uchinchi yo'nalishi kabi yirik loyihalarni amalga oshirishda qurilish-montaj ishlari qizg'in pallaga kirdi.

Investitsiya faoliyatining rivojlanishida turli manabalar hisobidan mablag'larning jalb etilishi holati o'rganilishi va ular hisobiga investitsiyalarni moliyalashtirish holatining rivojlanishini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi va quyidagi jadvalda so'nggi yillarda turli manbalar hisobiga investitsiyalarning moliyalashtirilish tarkibi va uning o'zgarishi keltirilgan. (3-rasm)




3-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining yillar davomida o'sish dinamikasi⁹, foizda.

2008 yildagi o'sish sur'ati 2002 yildagidan deyarli 7,5 barobarga ziyod

⁹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

bo'lgan. 2008 yilda iqtisodiyotga jalb etilgan 6,4 mlrd. AQSh dollaridagi investitsiyalarning 1,7 mlrd. AQSh dollari, ya'ni 26,6 %ini xorijiy investitsiyalar tashkil etgan. 2011 yilda bu o'rsatkich 25,1 %ga teng bo'lgan va 2 milliard 900 million dollarni tashkil etga¹⁰. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan davlat investitsiya siyosatining naqadar to'g'ri yo'ldan olib borilayotganligini va uning odil siyosat sifatida butun dunyo mamlakatlari tomonidan e'tirof qilinib kelayotganligi bilan ham tasdiqlamoqda.

Quyidagi rasmda 2003-2011 yillar davomida Davlat investitsiya dasturi doirasi jalb qilingan jami xorijiy investitsiyalar haqidagi ma'lumot keltirilgan:



4-rasm. Davlat investitsiya dasturlari doirasida xorijiy sarmoyalarni jalb etish dinamikasi (2003-2011 yy.)¹¹ mln. AQSh dollar

Jadval ma'lumotlari asosan Davlat investitsiya dasturini amalga oshirishda xorijiy sarmoyalar hajmi yildan-yilga o'sib borganligini va 2010 yilga kelib 2003 yildagiga nisbatan qariyb 5,5 barobarni tashkil etganligini va 3284,7 mln. AQSh dollarini tashkil etganligini hamda o'sish sur'atlari ham yuksalib borganligini, 2011 yilda bu miqdor 2900 mln. AQSh dollariga teng

¹⁰ I.Karimov "2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" Toshkent "O'zbekiston" 2012 yil. 35 b.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat investitsiya dasturi ma'lumotlari asosida tuzildi.

bo'lganligini qayd etish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, investitsiya loyihalarinin amalga oshirish orqali iqtisodiyotda tub o'zgarishlarni amalga oshirish imkonini beradi va bu iqtisodiyotda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va rivojlanish garovi bo'lib xizmat qiladi.

Investitsiyalarning mulkiy tuzilishi sodda ko'rinsa-da, uning tarkibida murakkabliklar mavjud. Bu, eng avval, nodavlat investitsiyalariga taalluqlidir. O'zbekistonda shakllangan nodavlat sektori ikki qismdan iborat. Birinchisi, xususiy sektor bo'lsa, ikkinchisi, jamoa sektoridir. Xususiy mulk esa tarkiban bir xil emas, u individual va korporativ mulkdan iborat. Bu mulklar tabiatdan xususiy hisoblansa-da, ular farqlanadi. Shunga binoan investitsiyalarni ham mulk ob'ekti sifatida farqlantirish zarur. O'zbekistonda xususiy sektor kengayishi natijasida xususiy investitsiyalarning ahamiyati ancha oshdi, biroq, bu, ko'proq, individul mulkchilikka xos bo'ldi. Natijada turli mulkka oid korxona va tashkilotlarning investitsiyadagi ishtiroki o'zgargan (5-jadval).

5-jadval

O'zbekiston iqtisodiyotida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning mulkiy tuzilishi (%)¹²

Investitsiyalarning mulk shakllari bo'yicha taqsimlanishi	1995 y	2000 y	2004 y	2006 y	2009 y	2012 y
1. Davlat mulki	55,1	63,9	39,7	33,1	23,9	23,4
2. Nodavlat mulki	44,9	36,1	60,3	66,9	76,1	81,5
jumladan:						
– fuqarolar xususiy mulki	11,3	15,6	13,6	13,7	12,1	17,4
– shirkatlar mulki	4,4	1,0	6,0	8,8	5,6	3,9
– xo'jalik birlashmalari mulki	21,3	12,7	24,1	26,8	25,0	27,1
– chet el fuqarolari va qo'shma korxonalar mulki	7,8	6,5	16,3	17,5	33,4	28,2
– boshqa mulklar	0,1	0,3	0,3	0,1	–	–

5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2000-2012 yillarda respublikamizda asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarning umumiy hajmida davlat mulkining

¹² O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari. // O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari to'plami. - T.: 1996-2012 yy. va O'zbekiston almanaxi. – T.: Iqtisodiy tadqiqotlar markazi, 2013. ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

ulushi pasayish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, asosan, aholi va korxonalarning investitsion xarajatlarni moliyalashtirishga yo'naltirgan mablag'lari hajmini mazkur davrda yuqori sur'atlarda oshganligi bilan izohlanadi. Masalan, 1995 yilda asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarning umumiy hajmida aholi mablag'larining hajmi 11,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda mazkur ko'rsatkich 17,4 foizni tashkil qildi. Mazkur davrda korxonalar mablag'larining asosiy kapitalga qilingan investitsiyalar hajmidagi salmog'i mos ravishda 21,3 va 27,1 foizni tashkil etdi.

6- jadval

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning tarkibi¹³, foiz hisobida

Moliyalashtirish manbalari	2005 y.	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.
Davlat byudjeti	12,7	10,7	9,0	9,0	8,1	7,4	5,1	4,5	4,8
Chet el investitsiyalari	19,2	19,0	22,8	25,8	32,4	28,8	25,3	25,5	23,2
Korxonalar va aholi mablag'lari	60,3	60,0	59,0	53,9	46,9	47,3	49,0	42,6	46,6
Boshqa manbalar	7,8	10,3	9,2	11,3	12,6	16,5	20,6	27,4	25,4

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2003 yilga nisbatan, 2011 yilda markazlashgan investitsiyalar salmog'i markazlashmagan investitsiyalarni nisbatan kamayib borgan.

Bugungi kunda, respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida hududlarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalariga bo'yicha quyidagi tarkibga bo'lish mumkin:

¹³ O'zbekiston Respublikasi Davlat investitsiya dasturi ma'lumotlari asosida tuzildi.

7-jadval.

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari
bo'yicha tarkibi¹⁴ (2012 yil Iyanvar holati bo'yicha)**

	Jami investi- tsiyalar mlrd. so'm	Shu jumladan umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida				
		Respub- lika Byudje- tidan	Korxona va aholi mablag'- lari	Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	Chet el inves- titsiya va kre- ditlari	Byud- jetdan tashqari fondlar
O'zbekiston Respublikasi	12531.9	8.1	46.9	5.2	32.4	7.4
Qoraqalpog'ist Respublikasi	652.4	4.1	70.0	3.9	16.8	5.2
viloyatlar						
Andijon	445.2	10.5	74.4	6.5	2.7	5.9
Buxoro	2443.4	2.5	16.8	1.3	78.0	1.4
Jizzax	230.2	22.8	46.4	10.7	8.1	12.0
Qashqadaryo	2193.0	2.9	51.0	1.5	37.4	7.2
Navoiy	587.7	7.2	75.7	6.9	3.3	6.9
Namangan	478.2	13.1	64.6	11.6	4.3	6.4
Samrqand	551.4	16.2	56.9	8.1	9.6	6.2
Surxondaryo	511.8	12.8	46.7	7.3	11.6	21.6
Sirdaryo	207.3	10.5	46.4	10.9	14.7	17.5
Toshkent	1247.3	10.1	51.0	7.7	12.9	18.3
Farg'ona	663.4	15.5	50.0	9.3	20.4	4.8
Xorazm	219.3	13.9	52.2	6.9	5.0	22.0
Toshkent.sh	2007.7	9.7	48.0	6.6	32.1	3.6

7 - jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibiga binoan respublikamizda korxona va aholi mablag'lari asosiy o'rinni ya'ni 46,9 foizni tashkil qilgan, keyingi o'rinda esa, xorijiy investitsiyalar va kreditlar 32,4 foizga teng bo'lgan. Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan asosiy kapitalni moliyalashtirish 5,2 foizni tashkil qilgan.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning mulkchilik shakllari bo'yicha respublika miqyosida va mintaqalar bo'yicha kiritilishi aholi turmush darajasini yaxshilash va bo'sh ish o'rinlarini to'ldirishni shakllantiradi.

Iqtisodiyotda investitsiya loyihalari turli tarmoqlarda amalga oshiriladi.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasining statistik axborotnomasi – 2011 yil. 81-b.

Investitsiya resurslarining taqchilligi sharoitida ustuvor yo'nalishga ega bo'lgan loyihalar qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarida, ijtimoiy sohalarda (fan, sog'liqni saqlash, madaniyat, maorif va h. k.) amalga oshirilishi lozim. Investitsiya loyihalarining ishlab chiqilishi turli tarmoqlarda olib borilishi mumkin. Bularga aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va agrosanoat, mashinasozlik, kurilish sanoati, aloqa va informatika, ximiya sanoati, o'rmon kompleksi, ekologiya tarmog'i kiradi.

O'zbekiston iqtisodiyotining taraqqiyotini ta'minlashda investitsiyalarning roli benihoya katta bo'lib, u, eng avvalo, iqtisodiyotni intensiv rivojlantirish asosida hamda yangi texnika-texnologiyalar jalb qilish va o'zlashtirish negizida rivojlantirishi bilan izohlanadi.

2.2. Investitsiya loyihalarini markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalar hisobiga moliyalashtirish amaliyoti tahlili

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishda birinchi navbatda ichki imkoniyatlardan foydalanishga xarakat qilinmoqda. Xususan, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha amaldga oshirilayotgan yirik va strategik investitsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat byudjetining ham ahamiyati yuqori bo'lmoqda.

Korxonalarni texnik va texnologik yangilash, modernizatsiya qilish va yangi ishlab chiqarish ob'ektlarini qurish, shu orqali yangi ish o'rinlarini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotining barqaror va dinamik rivojlanishini ta'minlash uchun yo'naltirilgan investitsiya loyihalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 noyabrda "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilga mo'ljallangan investitsion dasturi to'g'risida"gi 1855-sonli Qarori qabul qilingan bo'lib, ushbu dasturda belgilangan kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbalari tarkibida davlat

byudjeti va byudjetdan tashqari fondlarning ahamiyati katta bo'lmoqda. Buni quyidagi -jadval ma'lumotlari orqali ko'rishimiz mumkin.

8- jadval

O'zbekiston Respublikasining 2012-2013 yilgi investitsiya dasturidagi kapital qo'yimlarning asosiy parametrlari (mln.so'm)¹⁵

№	Moliyalashtirish manbalari	2012 yil	2013 yil (prognoz)
	Kapital qo'yimlar, jami shu jumladan:	23 679 701	27 123 275
1.	Markazlashgan investitsiyalar:	5 740 892	6 691 366
1.1	Byudjet mablag'lari	1 059 254,4	1 300 000
1.2	Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash fondi	115 560	131 000
1.3	Byudjetdan tashqari fond mablag'lari shundan: - Respublika yo'l fondi - Bolalar sportini rivojlantirish fondi - Ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarini tiklash, kapital ta'mirlash va jihozlash fondi - Oliy ta'lim muassasalarini texnik material bazasini ta'mirlash fondi	1 431 777 680 796 158 147 545 836 46 997,6	1 876 750 921 572 218 243 623 500 113 435
1.4	O'zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot fondi	1 432 400	1 632 833
1.5	Hukumat kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar va kreditlar Shu jumladan: - qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida uy-joy qurilishiga	1 701 901 301 564	1 750 783 250 560
2.	Markazlashmagan investitsiyalar:	17 938 809	20 431 910
2.1	Korxona mablag'lari	6 835 725	8 150 655
2.2	Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari - ATB "Qishloq qurilish bank" ning namunali loyixalar bo'yicha imtiyozli kreditlari	3 524 824 222 070	3 236 108 426 300
2.3	To'g'ridan – to'g'ri investitsiyalar va kreditlar	4 340 656	4 563 159
2.4	Aholi mablag'lari	3 237 604	4 481 988

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 27 dekabrda «2012 yildagi O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi to'g'risida»gi Qarori va 2012 yil 21 noyabrda «2013 yildagi O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi to'g'risida»gi Qarori ma'lumotlari

O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi Investitsiya dasturi doirasida Iqtisodiyot vazirligi tomonidan Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Moliya vazirligi, boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan birgalikda 27 123 275 million so'm mablag' o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan. Bu mablag'lar, asosan, qurilish, qayta ta'mirlash va jihozlash kabi ishlarga yo'naltiriladi. Shu sababli ham kapital qurilishning amaldagi holatini tahlil qilishdan avval, Investitsiya dasturining asosiy parametrlari bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiqdir. Mazkur mablag'lar o'tgan yildagidan 3442574 million so'mga ko'pdir. 2013 yil uchun investitsiya dasturida mo'ljallangan kapital qo'yilmalarning hajmi, oldingi yilga nisbatan deyarli barcha manbalar bo'yicha o'sgan. Shuningdek, markazlashgan investitsiyalar 950474 million so'mga ortib, umumiy kapital qo'yilmalardagi ulushi 24,7 foizni tashkil qilgan. 2013 yilda markazlashgan investitsiyalar tarkibida eng salmoqli hissa, avvalgi yillardan farqli o'laroq, byudjetdan tashqari fond mablag'lariga to'g'ri kelib, bu manba o'tgan yilga nisbatan 444 973 million so'mga ortgan. Markazlashmagan investitsiyalar ham 2493101 million so'mga o'sgan va umumiy kapital qo'yilmalardagi ulushi 75,3 foizni tashkil qilgan.

Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida ishlab chiqilgan 2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturining samarali ijrosini ta'minlashda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi alohida rol o'ynamoqda.

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini tashkil qilinishi real sektorning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirish, samarali tarkibiy islohotlarni amalga oshirish va investitsiya siyosatini moliyaviy ta'minlashning samarali manbalari shakllanishiga olib keldi. Ayniqsa, ushbu jamg'arma inqirozga qarshi choralar dasturida belgilangan chora-tadbirlar ijrosini izchil ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

**O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
mablag'larini jalb qilish orqali amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining
2012 yilda yo'naltiriladigan hajmi¹⁶ (million dollar)**

№	Buyurtmachilar va loyihaning nomi	2012 yilda yo'naltiriladigan mablag'larning	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larining ulushi, foizda
	Jami	2 093,7	732,8	34,9
1.	Yangi qurilish	565,2	259,0	45,8
2.	Tezlashtirilgan investitsiya loyihalariga	1 528,5	473,8	30,9

9-jadval ma'lumotlariga binoan jamg'arma mablag'lari hisobidan 2012 yilda jami 732,8 million dollar hajmidagi loyihalar moliyalashtirilishi ko'zda tutilgan bo'lib, jami moliyalashtirish manbalari tarkibida jamg'arma mablag'larining ulushi 34,9 foizni tashkil etadi.

Yangi qurilish loyihalari uchun 259,0 million dollar mablag' ajratilishi ko'zda tutilgan ushbu yo'nalishdagi jami loyihalarni moliyalashtirish manbai tarkibida jamg'armaning ulushi 45,8 foizni tashkil etadi. Modernizatsiya va qayta ta'mirlash loyihalari uchun esa 473,8 million dollar mablag' jalb qilinishi ko'zda tutilgan bo'lib, bu jami moliyalashtirish manbalari tarkibida 30,9 foizni tashkil etadi.

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, jahon moliyaviy iqtisodiy-inqirozi sharoitida respublikamizda kuzatilayotgan makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish suratlari ta'minlashda, mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar, aholining turmush farovonligini oshirishda davlatning moliyaviy qo'llab-quvvatlashning ahamiyati beqiyos bo'lmoqda. Bu, o'z navbatida, davlat tomonidan moliyalashtirish tizimida amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning amaldagi yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bilan uyg'un ravishda olib borilayotganining natijasidir.

¹⁶ www.lex.uz ma'lumotlari

Barchamizga ma'lumki, o'tgan 2011 yilda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda zamonaviy, yuksak texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni tashkil etishni tezlashtirish borasida O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini o'zida mujassam etgan O'zbek modelining eng muhim tamoyillaridan biri bo'lgan davlatning bosh islohotchi ekani haqidagi printsiptan kelib chiqib, davlat tomonidan oqilona, faol investitsiya siyosati olib borildi. Buni o'zlashtirilgan kapital qo'yilmalar miqdoridan ham bilib olish mumkin. Raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2011 yilda moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan qiymati 10 milliard 800 million dollardan ortiq kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi, bu 2010 yilga nisbatan 11,2 foiz ko'p demakdir¹⁷. Iqtisodiyotimizga kiritilayotgan investitsiyalarning yildan-yilga o'sib borishida yurtimizdagi mavjud investitsion sharoit va qulay investitsiya muhiti alohida ahamiyat kasb etayotganini ta'kidlash joiz.

Statistik tahlillarni milliy valyutimiz misolida davom ettiradigan bo'lsak, rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2011 yilning yanvar-dekabr oylarida 18291,3 milliard so'mlik kapital qo'yilmalar o'zlashtirilgan. Investitsiyalarning umumiy hajmida markazlashgan investitsiyalar 17,5 foizni (3198, 7 milliard so'm), investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 23,9 foizni (6.1.2-rasm) tashkil etgani ham mamlakatimizda investitsiya jarayonlarining jadal faollashib borayotganini ko'rsatadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilayotgan investitsiyalar manbalari va ulardan foydalanish borasida ijobiy sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda. Moliyalashtirish manbalari tarkibiga to'xtaladigan bo'lsak, 2011 yilda umumiy investitsiyalar hajmida davlat byudjeti mablag'lari 5,1 foiz; chet el investitsiyalari 25,3 foiz; korxonalar va aholi mablag'lari 49 foizni tashkil etgan.

¹⁷ Islom Karimov. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. T.: O'zbekiston, 2012 y., 11-bet.

10-jadval

2005-2011 yillarda investitsiyalar tarkibining o'zgarishi¹⁸, foizda

Moliyalashtirish manbalari	2005 y.	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009y.	2010 y.	2011 y.
Davlat byudjeti	12,7	10,7	9,0	9,0	8,1	7,4	5,1
Chet el investitsiyalari	19,2	19,0	22,8	25,8	32,4	28,8	25,3
Korxonalar va aholi mablag'lari	60,3	60,0	59,0	53,9	46,9	47,3	49,0
Boshqa manbalar	7,8	10,3	9,2	11,3	12,6	16,5	20,6

2011 yil uchun qabul qilingan O'zbekistonning investitsiya dasturida byudjet mablag'lari hisobidan jami 950 milliard so'mlik mablag' ajratilishi ko'zda tutilgan edi, olib borilgan iqtisodiy siyosat natijasida, 2012 yil 1 yanvar holatiga ko'ra byudjetdan 1101,7 milliard so'm mablag' o'zlashtirildi. Bu esa prognoz qilingan mablag'dan 116 foizga ko'p demakdir. Bunga, albatta, byudjet daromadlarining oshgani va moliya-iqtisod sohasining to'g'ri, oqilona olib borilgani mustahkam zamin bo'ldi.

2012 yilda Ta'lim muassasalarini rekonstruktsiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi hisobidan jami 162,1 milliard so'm, shundan kapital ta'mirlash va rekonstruktsiya qilish uchun 75,2 milliard so'm mablag' ajratilishi rejalashtirilgan edi. Amalga oshirilgan aniq tadbirlar natijasida 2012 yilda: Farg'ona viloyatida 540 o'quvchi o'rniga mo'ljallangan bitta akademik litsey; Qoraqalpog'iston Respublikasi va Jizzax viloyatida 1170 o'quvchi o'rniga ega bo'lgan 2 ta kasb-hunar kolleji; Andijon, Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida 450 nafar talabaga mo'ljallangan talabalar turar joylari; Namangan, Toshkent va Xorazm viloyatlari kasb-hunar kollejlari uchun laboratoriyalar, shuningdek, 38165 o'quvchi uchun mo'ljallangan 118 ta umumta'lim maktabi qurilib, foydalanishga topshirildi.

¹⁸ Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida shakllantirildi

Markazlashgan va markazlashmagan mablag'lar hisobidan amalga oshirilgan tadbirlar¹⁹ (2012 yil holati bo'yicha)

	Moliyalashtirish manbalari	Amalga oshirilgan yirik tadbirlar	O'zlashtirilgan mablag'lar, milliard so'm
1	Byudjet mablag'lari	- suv xo'jaligi tizimi (irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari, yangi suv xo'jaligi inshootlari qurilishi uchun va boshqa) rivojlantirildi - sog'liqni saqlash tizimi islohotlari uchun - ta'lim tizimini rivojlantirish uchun - qishloq aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida - shahar tipidagi posyolkalar, qishloq qurilishi uchun bosh reja va arxitektura loyihalari uchun	272,3 282 31,4 41,5 2,5
2	Respublika yo'l jamg'armasi	- zamonaviy yo'llarni qurish, mavjudlarini qayta ta'mirlash uchun	348,8
3	Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi	- suv xo'jaligi inshootlarini qurish, irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari uchun	80,7
4	Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi	- ta'lim tizimini rivojlantirish, yangi turdagi ta'lim muassasalarini qurib bitkazish, mavjudlarini qayta rekonstruksiya qilish, shuningdek, ta'lim dargohlarining o'quv-laboratoriya xonalarini jihozlash uchun	162,1
5	Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi	- o'rta maxsus ta'lim maktablari uchun sport majmualarini qurish, mavjudlarini qayta ta'mirlash, musiqa va san'at maktablarini tashkil etish, ular uchun zamonaviy binolar barpo etish	150,8
6	Xorijiy investitsiyalar, tijorat banklari kreditlari, O'zbekiston Respublikasi taraqqiyot va tiklanish jamg'aramasi, korxonalarning xususiy mablag'lari	Yangi qurilishlar, modernizatsiya va rekonstruksiya uchun o'zlashtirilgan jami mablag'lar, <i>million dollar</i>	6016,97

Hukumatimiz tomonidan qulay investitsiya siyosatini olib borish maqsadida quyidagi tamoyillarga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda: tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish; respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri kapital qo'yilmalarning keng jalb qilinishini ta'minlovchi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sharoitlarni yanada takomillashtirish; yurtimizga jahon darajasidagi texnologiyalarni olib kiruvchi, milliy xo'jalikning zamonaviy tuzilmasini tashkil etishga ko'maklashuvchi chet el investorlariga nisbatan qulay sharoitlar yaratish siyosatini izchil olib borish; eng muhim ustuvor yo'nalishlarga mablag'larni yo'naltirish. Bundan ko'rinadiki, korxonalarni

¹⁹ Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida shakllantirildi

texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, zamon talablariga mos bo'lgan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ayniqsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining keyingi to'lqinlari zarbasiga ijtimoiy-iqtisodiy talofatlarsiz bardosh berish, ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish bilan bog'liq masalalarni hal etishda kompleks yondashuvlarga urg'u berilmoqda.

2012 yilning investitsiya dasturi prognoz ko'rsatkichlarini tahlil qiladigan bo'lsak, jami kapital qo'yilmalar 23 679 70 million so'mni tashkil etishi rejalashtirilgan. Bu o'tgan yilga nisbatan 14,2 foizga ko'p demakdir. Reja bo'yicha markazlashgan investitsiyalar umumiy kapital qo'yilmalarning 24,2 foizini, markazlashmagan investitsiyalar esa 75,8 foizni tashkil qilishi belgilab qo'yilgan.

Har doimgidek, korxona va aholi mablag'larining ulushi boshqa manbalarga nisbatan yuqori bo'lib, markazlashmagan investitsiyalarning 56,1 foizini tashkil etmoqda. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha markazlashmagan investitsiyalar umumiy tarkibida ularning ulushi 2000 yilda 27,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda 38,1 foiz bo'lishi rejalashtirilgan (12-жадвал).

Mamlakatimizda investitsiya muhitining barqarorligi va investitsion jozibadorlikning to'g'ri yo'lga qo'yilgani ham xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi uchun zamin bo'lmoqda. 2012 yilda so'm qiymatida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarning ajratilishi 4 340 656 million so'mni tashkil etishi rejalashtirilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari muhim investitsiya instituti hisoblanadi. Chunki iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish va modernizatsiya qilish, korxonalarda ishlab chiqarishni texnologiyalar bilan qayta jihozlash maqsadida qo'yiladigan investitsiyalarni mablag'lar bilan ta'minlashni banklar ishtirokisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunday ekan, 2012 yilgi Investitsiya dasturida 3524824 million so'm mablag' aynan tijorat banklari tomonidan kredit mablag'lari sifatida yo'naltirilishi muhim ahamiyatga egadir. Ushbu raqam umumiy markazlashmagan investitsiyalarning 19,6 foizini tashkil etmoqda.

12-jadval

O'zbekiston Respublikasining 2012 yildagi investitsiya dasturida ko'zda tutilgan kapital qo'yilmalarning asosiy parametrlari²⁰

№	Moliyalashtirish manbalarining nomlanishi	2012 yil, million so'm
	Jami kapital qo'yilmalar, shundan:	23 679 701
1.	Markazlashgan investitsiyalar:	5 740 892
1.1.	Byudjet mablag'lari	1 059 354,4
1.2.	Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi	115 560
1.3.	Byudjetdan tashqari fonlardan, jumladan:	1 431 777
	- Respublika yo'l jamg'armasi	680 796
	- Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi	158 147
	- Ta'lim muassasalarini rekonstruktsiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi	545 836
	- Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish jamg'armasi	46 997,6
1.4.	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi (so'm ekvivalentida)	1 432 400
1.5.	Davlat kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar va kreditlar (so'm ekvivalentida), shundan:	1 701 901
	<i>Qishloq joylarda uy-joylarni qurish (so'm ekvivalentida)</i>	301 564
2.	Markazlashmagan investitsiyalar:	17 938 809
2.1.	Korxona mablag'lari	6 835 725
2.2.	Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari, shu jumladan:	3 524 824
	<i>ATB "Qishloq qurilish banki"ning qishloq joylarda uy-joylarni qurish uchun imtiyozli kreditlari</i>	222 070
2.3.	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar (so'm ekvivalentida)	4 340 656
2.4.	Aholi mablag'lari	3 237 604

Iqtisodiyotning etakchi, avvalambor bazaviy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash bo'yicha loyihalarni va shuningdek, samarali tarkibiy o'zgarishlar va investitsiya siyosatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 2006 yilda tashkil etilgan, nizom fondi bugungi kunda qariyb 7 milliard dollardan iborat bo'lgan O'zbekiston

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 27 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilga mo'ljallangan investitsion dasturi to'g'risida"gi 1668-sonli Qarori. 1-ilova.

Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining roli tobora ortib bormoqda, ushbu jamg'arma mablag'lari hisobidan 2012 yilda 1 432 400 so'm sarflanishi rejalashtirilgan.

2.3. “O'zgidroenergoqurilish” OAJ investitsiya loyihasini moliyalashtirish manbalari tahlili.

Moliyaviy holat o'zgarishlarining umumiy manzarasini aniqlash uchun balans tarkibiy harakati ko'rsatkichlari g'oyat muhimdir. Aktiv va passivdagi tarkibiy o'zgarishlarni solishtirib, asosan qaysi manbalar orqali yangi mablag'larning oqib kelishi yuz berganligi va bu yangi mablag'lar asosan qaysi aktivlarga qo'shilganligi xususida xulosa chiqarishi mumkin.

Korxona moliyaviy holati harakatini umumiy baholash uchun balans moddalarini to'lov qobiliyati (aktiv moddalari) baholanadi.

13- jadval

“O'zgidroenergoqurilish” OAJ ning 2007-2009 yillardagi balans-netto aktivining tarkibi tahlili²¹

Balans tarkibi	2007 yil		2008 yil		2009 yil		O'z g. nis, %
	Ming so'm	%	Ming so'm	%	Ming so'm	%	
Jami mulk	13335329	100	20468466	100	21887164	100	107
Immobilizatsiyalangan aktivlar	3389906	25,4	6697677	32,7	8992944	41,8	134
Shu jumladan: Qoldiq qiymat bo'yicha asosiy aktivlar	1994555	14,9	2601991	12,7	5194433	23,7	198
Qoldiq qiymat bo'yicha nomoddiy aktivlar	654	0,05	3389027	16,5	3028453	13,8	89
Kapital qo'yilmalar	1356187	10,2	669210	3,3	698374	3,2	4
Aktsiyalar, zayomlar, investitsiyalar	38510	0,3	37399	0,2	71684	0,3	192
Aylanma aktivlar Shu jumladan:	9945423	74,6	13770789	67,3	12894220	58,9	94
Zaxira va xarajatlar	2669772	20,0	2752034	13,4	4441044	20,3	161
Pul mablag'lari	1174892	8,8	632619	3,1	550449	2,5	87
Debitorlik qarzlari	5993252	44,9	10307720	50,3	7866497	35,9	76

²¹ “O'zgidroenergoqurilish” OAJ ning yillik hisoboti ma'lumotlari

13-jadvalda “O’zgidroenergoqurilish” OAJ ning 2007-2009 yillardagi balans-netto aktivining tarkibi tahlil qilingan, bunga ko’ra, jami mulk 2007 yilda 13335329 ming, 2008 yilda 20468466 ming so’mni, 2009 yilda 21887164 ming so’mni tashkil qilgan. Shunga ko’ra, immobilizatsiyalangan aktivlar 2007 yilda 3389906 ming so’mni, 2008 yilda 6697677 ming so’mni, 2009 yilda 8992944 ming so’mni tashkil etgan. Shu jumladan qoldiq qiymat bo’yicha aktivlar 2007 yilda 1994555 ming so’mni, 2008 yilda 2601991 ming so’mni, 2009 yilda 5194433 ming so’mni tashkil qilgan. Qoldiq qiymat bo’yicha nomoddiy aktivlar 2007 yilda 654 ming so’mni, 2008 yilda 3389027 ming so’mni, 2009 yilda esa 3028453 ming so’mni tashkil qilgan. Kapital qo’yilmalar 2007 yilda 1356187 ming so’mni, 2008 yilda 669210 ming so’mni, 2009 yilda esa 698374 ming so’mni tashkil qilgan. Aktsiyalar, zayomlar va investitsiyalar esa 2007 yilda 38510 ming so’mni, 2008 yilda 37399 ming so’mni, 2009 yilda esa 71684 ming so’mni tashkil qilgan.

14- jadval.

“O’zgidroenergoqurilish” OAJ ning 2007-2009 yillardagi balans-netto passivining tarkibi tahlili²²

Balans tarkibi	2007 yil		2008 yil		2009 yil		O’zg nis, %
	Ming so’m	%	Ming so’m	%	Ming so’m	%	
Jami mulk	13335329	100	20468466	100	21887164	100	107
Xususi sarmoya	5445608	40,8	8252756	40,3	8428997	38,5	102
Shu jumladan Ustav sarmoyasi	1862642	13,9	8016033	39,2	8016033	36,6	100
Zaxira sarmoya	1896442	14,2	30747	0,15	37474	0,17	100
Taqsimlanmagan foyda, qoplanmagan zarar	1603068	12,0	204776	1,0	375490	1,7	183
Zayom sarmoyasi	7889721	59,2	12215710	59,7	13458167	61,5	110
Uzoq muddatli majburiyatlar	-	-	886372	4,3	3147799	14,4	355
Qisqa muddatli kreditlar va zayomlar	20000	0,15	20000	0,1	431821	2,0	2159
Kreditorlik qarzlari	7698697	57,7	11309338	55,2	9878547	45,1	87

²² “O’zgidroenergoqurilish” OAJ ning yillik hisoboti ma’lumotlari

14- jadvalda “O’zgidroenergoqurilish” OAJ ning 2007-2009 yillardagi balans-netto passivining tarkibi tahlil qilingan. Jami mulk 2007 yilda 13335329 ming, 2008 yilda 20468466 ming so’zni, 2009 yilda 21887164 ming so’zni tashkil qilgan. Xususiy sarmoya 2007 yilda 5445608 ming so’zni, 2008 yilda 8252756 ming so’zni, 2009 yilda 8428997 ming tashkil qilgan. Shu jumladan, ustav sarmoyasi 2007 yilda 1862642 ming so’zni, 2008 yilda 8016033 ming so’zni, 2009 yilda esa 8016033 ming so’zni tashkil qilgan ya’ni 2008 yildagi ko’rsatkich o’zgarmagan. Zaxira sarmoyasi 2007 yilda 1896442 ming so’zni , 2008 yilda 30747 ming so’zni, 2009 yilda esa 37474 ming so’zni tashkil qilgan. Taqsimlanmagan foyda, qoplanmagan zarar 2007 yilda 1603068 ming so’zni, 2008 yilda 204776 ming so’zni, 2009 yilda esa 375490 ming so’zni tashkil qilgan. Zayom sarmoyasi 2007 yilda 7889721 ming so’zni, 2008 yilda 12215710 ming so’zni, 2009 yilda esa 13458167 ming tashkil qilgan. Qisqa muddatli kreditlar va zayomlar 2007 yilda 20000 ming so’zni, 2008 yilda ham 20000 ming so’zni, 2009 yilda esa 431821 ming so’zni tashkil qilgan ya’ni, 2008 yilga nisbatan 231821 ming so’nga oshgan. Kreditorlik qarzlari 2007 yilda 7698697 ming so’zni, 2008 yilda 11309338 ming so’zni, 2009 yilda esa 9878547 ming tashkil qilgan.

Mablag’larning aylanish tezligi-korxona ishlab chiqarish-xo’jalik faoliyat darajasining kompleks ko’rsatkichidir. Aylanishlar miqdorining ko’payishiga ishlab chiqarish bilan muomalada bo’lish vaqtining qisqartirilishi hisobiga erishiladi. Ishlab chiqarish vaqti texnologik jarayon bilan qo’llanilayotgan texnikaning xususiyatiga o’zaro bog’langandir. Uni qisqartirish uchun texnologiyani shakllantirish, mehnatni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish zarur. Muomalada bo’lish vaqtini qisqartirishga ham ixtisoslashtirishni rivojlantirish, zavodlararo bevosita aloqalarni rivojlantirish hujjatlari va hisob-kitoblarning aylanishini tezlashtirish orqali erishiladi. Barcha aylanma mablag’larning unumli aylanuvchanligi aylanma mablag’lar ayrim tarkibiy

qismlari aylanuvchanligidan tarkib topadi. Aylanma mablag'larning aylanuvchanligi ularning me'yorlaridan chiqishi bilan xususiyatlanadi.

15-jadval.

“O'zgidroenergoqurilish” OAJ ning 2007-2009 yillarda aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi tahlili²³ (ming so'm)

№	Ko'rsatkichlar	2007 yil	2008 y	2009 y	Farq (-)
1	2	3	4	5	6
1	Sotishdagi yalpi tushim	2641659	4998561	6777920	1779359
2	Sof foyda	90518	171331	170714	-617
3	Aylanma mablag'larning o'rtacha qoldig'i	9945423	13770789	12894220	-876569
4	Aylanma mablag'larning aylanuvchanligi: —kunlarda —marotabalarda	1355,3 0,26	991,7 0,36	684,8 0,52	-306,9 0,16
5	Aylanma mablag'larning rentabinligi, %	0,91	1,24	1,32	0,08
6	Bir kunlik tushim	7337,9	13884,9	18827,5	4942,6
7	Aylanma mablag'larning aylanuvchanligini tezlanishtirish natijasida aylanma mablag'lar bo'shatildi	X	X	X	-5778159,7
8	Hisobot yilini ro'yobga chiqarish chog'ida aylanma mablag'larning o'rtacha miqdorining aylanuvchanligi.	X	X	731,4	X

Aylanma mablag'larning aylanuvchanligini tezlanishtirish (sekinlashtirish) natijasida aylanma mablag'lar 2009 yil -5778159,7 ming so'm bo'shatildi. Hisobot yilini ro'yobga chiqarish chog'ida aylanma mablag'larning o'rtacha miqdorining aylanuvchanligi 2009 yilda 731,4 ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning samaradorlik darajasi ko'p jihatdan asosiy fondlardan foydalanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Asosiy fondlardan qanchalik yaxshi foydalanilsa, mahsulot ishlab chiqarish shunchalik ko'p, mehnat unumdorligi shunchalik yuqori, chiqarilayotgan mahsulot tannarxi kam, foyda va rentabellik yuqori bo'ladi.

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi fond samaradorligi, ko'p foyda talab qilinishi, rentabellik, shuningdek, mahsulot hajmi va asosiy fondlarni takroriy ishlab chiqarishga harajatlarning kamayishi, mehnat vositalari xizmat muddatlarining uzayishi bilan tavsiflanadi.

²³ “O'zgidroenergoqurilish” OAJ ning yillik hisoboti ma'lumotlari

Moliyaviy natija- korxona ishining foyda summasi va rentabellik darajasida ifodalanadigan yakunidir. Korxonaning moliyaviy hisobotida moliyaviy natijalar 2-shakl “Moliyaviy natijalar to’g’risida hisobot” asosida aniqlanadi va tahlil qilinadi. Buxgalteriya balansining balans passivi 1-bo’limi “o’z mablag’lari manbalari”da taqsimlanmagan foyda ko’rsatiladi.

16- jadval.

“O’zgidroenergoqurilish” OAJ ning 2007-2009 yillardagi moliyaviy natijalari tahlili²⁴(ming so’m)

№	Ko’rsatkichlar	2007 yil	2008 yil	2009 yil	O’zg. nis, %	Farq (Q;-)
1	2	3	4	5	6	7
1	Yalpi foyda yoki mahsulotni sotishdan moliyaviy natija	2641659	4998561	6777920	135	1779359
2	Asosiy faoliyatdan olingan foyda	438311	536135	428395	79,9	-107740
3	Umumxo’jalik faoliyatidan olingan foyda	559963	850983	789777	92,8	-61206
4	Foyda solig’i to’lashdan oldingi foyda	559963	850983	789777	92,8	-61206
5	Sof foyda	90518	171331	170714	99,6	-617
6	O’z sarmoyasi rentabelligi	0,2	0,02	0,02	100	0
7	Asosiy sarmoya rentabelligi	0,01	0,012	0,013	108	0,001
8	Mahsulotni sotish rentabelligi	0,18	0,17	0,22	129	0,05
9	Xarajatlar rentabelligi	3,8	2,27	1,8	79,3	-0,47
10	Asosiy sarmoyani o’zini qoplashi	109,9	80,4	75,5	93,9	-4,9
11	O’z sarmoyasining o’zini qoplashi	60,2	48,2	49,4	102	1,2

16- jadvalda, “O’zgidroenergoqurilish” OAJ ning 2007-2009 yillardagi moliyaviy natijalari tahlil qilingan. Yalpi foyda yoki mahsulotni sotishdan moliyaviy natija 2007 yilda 2641659 ming so’mni, 2008 yilda 4998561 ming so’mni, 2009 yilda 1779359 ming so’mga oshib, 6777920 ming so’mni tashkil qilgan. Asosiy faoliyatdan olingan foyda 2007 yilda 438311 ming so’mni, 2008 yilda 536135 ming so’mni, 2009 yilda 107740 ming so’mga kamayib, 428395 ming so’mni tashkil qilgan. Umumxo’jalik faoliyatidan olingan foyda 2007

²⁴ “O’zgidroenergoqurilish” OAJ ning yillik hisoboti ma’lumotlari

yilda 559963 ming so'mni, 2008 yilda 850983 ming so'mni, 2009 yilda 61206 ming so'mga kamayib, 789777 ming so'mni tashkil qilgan. Foyda solig'i to'lashdan oldingi foyda ham xuddi shu ko'rsatkichlarni tashkil etgan. Sof foyda 2007 yilda 90518 ming so'mni, 2008 yilda 171331 ming so'mni, 2009 yilda 617 ming so'mga kamayib, 170714 ming so'mni tashkil qilgan. Mahsulotlarni sotish rentabelligi 2007 yilda 0,18%ni, 2008 yilda 0,17%ni, 2009 yilda 0,05%ga oshib, 0,22%ni tashkil qilgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tasdiqlagan Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va uni sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomga ko'ra foydaning quyidagi ko'rsatkichlari farqlanadi.

- * mahsulotni sotishdan yalpi foyda;
- * asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda:
- * umumxo'jalik faoliyatidan ko'rilgan foyda:
- * soliqlarni to'lashdan oldingi foyda:
- * sof foyda:

Mahsulotni sotishdan yalpi foyda (YAP) korxonaning mahsulotni sotishdan olgan daromadini tavsiflaydi va mahsulot sotishdan tushgan sof tushum va sotilgan mahsulot tannarxi o'rtasidagi farq sifatida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi;

YAFQ ST-MT

Mahsulot sotishdan sof tushum (ST)-mahsulotni sotishdan qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'i chiqarilgandan keyingi sof tushum summasidir. Bu ko'rsatkich korxonaning mahsulotni sotishdan ko'rgan foydasidir.

Sotilgan mahsulot tannarxi (MT)-korxonaning mahsulotni chiqarish maqsadidagi bevosita va bilvosita, moddiy va mehnat sarflarini o'z ichiga oladi.

17-jadval

“O’zgidroenergoqurilish” OAJ ning 2007-2009 yillardagi mulk tarkibi tahlili²⁵(ming so’m)

№	Ko’rsatkichlar	2007 yil	2008 yil	2009 yil	Farq (Q;-)
1	Mulk qiymati	13335329	20468466	21887164	1418698
2	Mulkka nisbatan foizlardagi uzoq muddatli aktivlar	3389906 25,4	6697677 32,7	8992944 41,1	2295267 8,4
3	Aylanma (harakatchan) vositalar mulkka nisbatan foizlarda	9945423 74,6	13770789 67,3	12894220 58,9	-876569 -8,4
4	Moddiy aylanma mablag’lar-aylanma mablag’larga nisbatan foizlarda	2669772 20	2806081 13,7	4477274 20,4	1671193 6,7
5	Pul mablag’lari va qisqa muddatli moliyaviy qo’yilmalar aylanma mablag’larga nisbatan foizlarda	1282399 9,6	656988 3,2	998651 4,6	341663 1,4
6	Xususiy mablag’lar mulkka nisbatan foizlarda	5445608 40,8	8252756 40,3	8428997 3,8	-7409859 -36,5
7	Zayom mablag’lari mulkka nisbatan foizlarda	7889721 59,2	12215710 59,7	13458167 61,4	1242457 1,7
8	Uzoq muddatlari zayom mablag’lari zayom mablag’lariga nisbatan foizlarda	- -	886372 4,3	3147799 14,4	2261427 10,1
9	Qisqa muddatli zayom mablag’lari zayom mablag’lariga nisbatan foizlarda	7889721 59,2	11460428 56,0	10461047 47,8	-99381 -8,2

17-jadvalda “O’zgidroenergoqurilish” OAJ ning 2007-2009 yillardagi mulk tarkibi tahlil qilingan. Mulk qiymati 2007 yilda 13335329 ming so’mni, 2008 yilda 20468466 ming so’mni, 2009 yilda 21887164 ming so’mga oshib, 21887164 ming so’mni tashkil qilgan. Mulkka nisbatan foizlardagi uzoq muddatli aktivlar 2007 yilda 3389906 ming so’mni, 2008 yilda 6697677 ming so’mni, 2009 yilda 8992944 ming so’mni tashkil qilgan. Aylanma (harakatchan) vositalar mulkka nisbatan foizlarda 2007 yilda 9945423 ming so’mni, ya’ni 74,6%ni 2008 yilda 13770789 ming so’mni, ya’ni 67,3%ni, 2009 yilda 12894220 ming so’mni, ya’ni 58,9%ni tashkil qilgan. Moddiy aylanma mablag’lar-aylanma mablag’larga nisbatan foizlarda 2007

²⁵ “O’zgidroenergoqurilish” OAJ ning yillik hisoboti ma’lumotlari

yilda 2669772 ming so'mni, ya'ni 20%ni 2008 yilda 2806081 ming so'mni, ya'ni 13,7%ni, 2009 yilda 4477274 ming so'mni, ya'ni 20,4%ni tashkil qilgan. Xususiy mablag'lar mulkka nisbatan foizlarda 2007 yilda 5445608 ming so'mni, ya'ni 40,8%ni 2008 yilda 8252756 ming so'mni, ya'ni 40,3%ni, 2009 yilda 8428997 ming so'mni, ya'ni 3,8%ni tashkil qilgan.

III BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISH MANBALARI QIYMATINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

3.1. O'zbekistonda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholash bilan bog'liq muammolar

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarini izlab topish va ularni moliyalashga jalb qilish hozirgi vaqtda investitsiya faoliyatidagi eng asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida moliyalashtirish manbalarining qiymatini baholashda tanqisliklar vujudga kelmoqda.

Bunda investitsion faoliyatni asta-sekin nodavlat sektoriga o'tib borishi, xususiy, jamoa, qo'shma korxonalarning yaratilishi va rivojlantirilishi ham investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining tasnifiga katta ta'sir ko'rsatdi. Masalan, xususiy yoki jamoa mulki bo'lgan korxonalar uchun korxona egalarining shaxsiy jamg'armalari ichki manba vazifasini o'tashi mumkin. Ya'ni, xorijiy firmalar bilan birgalikda egalik qilinayotgan korxonalar uchun xorijiy mulkdorning investitsiyalari mazkur korxona uchun ichki manba deb qaraladi. Bozor munosabatlari takomillashib borgan sari korxonalar investitsion faoliyatini moliyaviy ta'minlash manbalari ham tobora rang-barang bo'lib bormoqda.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholashda o'zlik, qarz, jalb qilingan mablag'lar tarkibiga qanday mablag'lar kirishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Mulkchilik shakllariga ko'ra davlat, xususiy va xorijiy investorlar mablag'lariga ajratib o'rganishimiz mumkin. Davlatning investitsion resurslariga turli soliqlar va majburiy yig'imlardan tashkil topgan soliqli daromadlari soliqsiz daromadlarining bir qismi, xususiy investitsion resurslarga iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlarining turli fondlarda jamlangan mablag'lari va jismoniy shaxslarning mablag'lari kiradi.

Umuman olganda, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholash ishlab chiqarishni tashkil etish jihatlarini o'zgartirib, iqtisodiy rivojlanishni xorijiy investitsiyani jalb etish rag'batlantirib boradi. Bunday moliyalashtirish mulkchilikning turli shakllariga mansub xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini yanada samarali bo'lishiga yordamlashadi, xo'jalik amaliyotida asta-sekin bosqichma-bosqich iqtisodiy o'sishni kengaytirishga, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini oshiradi, takror ishlab chiqarishni har tomonlama jadallashtirishga imkon beradi, xususiy sektorni investitsiyalash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda kreditlar o'z kapitali va mustaqil balansiga, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektlariga ajratiladi, bunda zarar ko'rib ishlaydigan, nolikvid balansga ega bo'lgan hamda moliyaviy nobarqaror ishalayotgan shaxslarga mablag'larning ajratilishiga ruxsat berilmaydi. Kreditlash jarayoni besh tamoyil asosida amalga oshiriladi, ya'ni maqsadlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik, qaytarishlilik, to'lovlilik shartlariga rioya qilinishi talab etiladi. Bunda qaytarishlilik tamoyili kreditning tub mohiyatini ifodalaydi.

Tijorat banki tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun ajratiladigan mablag'lar bankka o'z vaqtida qaytarilishi lozim, mablag'larni qaytirishning iqtisodiy asosi sifatida mablag'larning uzluksiz doimiy ravishda aylanishi hisoblanadi. Uzoq mudatli kreditlar iqtisodiy munosabatlarning belgilangan tizimi sifatida boshqa pulli munosabatlardan farq qiladi, ya'ni pulning harakati qaytarib berish sharti bilan amalga oshiriladi. Uzoq muddatga kredit ajratishda muddatlilik tamoyili ikki xil xarakterga ega: qarz mablag'lari vaqtincha foydalanishga berilib, qaytarilishini bildirib qolmay, balki bu qaytarilishni aniq muddatlarini belgilashni ham taqozo etadi. Kreditning muddati bir tomondan foydalanishga berilayotgan resurslarning bo'sh turish muddati bilan belgilansa, ikkinchi tomondan qarz oluvchining mablag'larga bo'lgan vaqtinchalik ehtiyojlarining muddatiga bog'liq bo'ladi. Uzoq muddatli kreditdan foydalanish muddati qarzga olingan mablag'larni qaysi davrgacha

foydalanishni hisobga olgan holda belgilanadi.

Uzoq muddatli kreditlarni ajratishda ta'minlanganlik tamoyilida qarz oluvchining mulki, moddiy boyliklar zaxiralari, ko'chmas mulk, ishlab chiqarish xarajatlari hajmiga mos kelishi bilan belgilanadi. Bu o'z navbatida kreditning muddatida qaytarilishini kafolatlaydi. Olingan kredit mablag'lari korxonada ishlab chiqarish zaxirasi, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot hamda mavjud moddiy boyliklarni ta'minlash uchun beriladi. Bu tamoyil asosida korxonalarga berilgan ssudalar yoki tomonlar majburiyatlari real ta'minlanadi. Kredit shartnomasiga ko'ra ssudaning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash maqsadida qarz oluvchi garovga ma'lum qiymatga ega bo'lgan mol-mulkni qo'yadi. Agar kreditni o'z vaqtida qaytara olmasa, u holda garovni sotish choralari ko'riladi, garov miqdori kredit summasining 120%ini tashkil qilishi lozim. Uzoq muddatli kreditning navbatdagi tamoyili uning maqsadga muvofiq yo'naltirilganidir. Bunda aniq xo'jalik jarayonlarining kredit bilan bog'liqligi ta'minlanadi. Kreditni maqsadli yo'naltirish tamoyili qarz oluvchi zimmasiga pul mablag'larini faqat rejada ko'rsatilgan maqsadlar uchun sarflashi ko'zda tutiladi. Uzoq muddatli kredit maqsadli tarzda aniq qurilish ob'ektlari va asbob-uskunalarini sotib olish uchun beriladi. Uzoq muddatli kreditlar ta'minlanganlik sifatida, odatda asosiy fondlar (bino, asbob-uskunalar) hisoblanadi, bu asosiy vositalar qarz oluvchiga tegishli bo'lib, ularga nisbatan yoki aniq belgilangan, yoki suzuvchi foiz stavkasi o'rnatiladi. Uzoq muddatli kreditlar uchun belgilanadigan foiz stavkasi qisqa muddatli kreditlar uchun belgilanadigan foiz stavkasidan katta bo'ladi, bu nomutanosiblik kredit berishdagi risk darajasiga bog'liq bo'ladi.

3.2. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholashni takomillashtirish yo'llari

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholashda ularni mablag'lar bilan ta'minlanishi borasida davlat tomonidan chora-

tadbirlarning ko'rilishi, ularni amalga oshirish uchun etarli shart-sharoit yaratishga yordam bermoqda. Davlat tomonidan investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun berilgan imtiyozlar, iqtisodiy siyosat olib borishda soliqqa tortish bazalarining bosqichma-bosqich kamaytirib borilishi korxonalarning shaxsiy aylanma mablag'larini oshirishga hamda ular orqali investitsiyalash jarayonlarini yanada jadallashtirishga yordam bermoqda. Natijada, moliyalashtirish manbalari bo'yicha kapital qo'yilmalar umumiy tarkibida korxonalarning o'z mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan investitsiyalarning ulushining o'sishi ta'minlandi. Korxona mablag'lari hisobiga shakllangan investitsiyalar ulushining keskin o'sishi hisobiga kapital qo'yilmalarning umumiy hajmidagi aholi mablag'larining ulushi pasaydi. Aholi mablag'larining asosiy qismi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga yo'naltirilgan bo'lib, ushbu investitsiya salohiyatidan past darajada foydalanilmoqda. Ishlab chiqaruvchilarga soliq-byudjet siyosatini takomillashtirish, to'lov intizomini mustahkamlash, xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar korxonalarning o'z ichki mablag'larini ko'payishiga imkoniyat yaratdi

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish shakllaridan biri kreditlardir, odatda, uch yildan ko'p vaqtga berilib, ular kapital qo'yilmalar, qurilish, ta'mirlash, texnik qayta qurollantirish, yangi texnologiyalarni sotib olish bilan bog'lik xarajatlarni moliyalashtirish uchun taqdim etiladi. Mazkur kreditlar yuridik shaxs maqomini olgan dehqon-fermer xo'jaliklari kabi kichik biznes sub'ektlariga muddatini uzaytirish huquqisiz besh yil muddatgacha ham berilishi mumkin. Kreditlar ajratilayotganda ta'minlanganlik sifatida hukumat kafolatlari, mulk garovi, banklar kafolati, uchinchi shaxsning qarzni qaytarish bo'yicha kafilligi, kreditni qaytara olmaslik riskidan sug'urta polisi talab etiladi. Bunday kreditlarning ishonchli tarzda berilishi mumkin emas.

Shuni ham ta'kidlash joizki, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda imtiyozli davrlar ham belgilanadi. Bu degani qarz oluvchi imtiyozli davrda faqat

kredit uchun hisoblangan foizlarni to'lab boradi, imtiyozli davr tugagandan keyin esa asosiy qarzni ham to'laydi.

Odatda, qarz oluvchi o'z majburiyatlarini bajarmasligi, korxonaning moliyaviy holatidagi salbiy o'zgarishlar yuz berishi ehtimoli kreditni qaytarish muddati yaqinlashgan vaqtda kuchayadi. Shu bois bank xodimlari (kredit inspektorlari va analitiklari) qarz oluvchilarning kredit olish arizalaridagi turli xil ma'lumotlarga ahamiyat beradilar: menejer malakasiga; mijoz tomonidan ishlatilayotgan buxgalteriya hisobi va auditorlik tizimiga; mijozning o'z vaqtida majburiyatlarining bajarayotganligiga; kredit uchun takdim etiladigan sug'urta badaliga; ishlab chiqariladigan mahsulot uchun talab va uni prognozlashtirish va boshqalarga.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda uzoq muddatli kreditlar muddatli kreditlar ichida risklilik darajasi eng yuqori bo'lgan kreditdir, uning boshqacha nomi "loyihaviy kredit" deb ham ataladi. Bu kreditlar korxonaga kelgusidagi naqd pul tushumini ta'minlovchi - asosiy kapitalni moliyalashtirish uchun zarur. Bunga misol sifatida davlat ahamiyati uchun molik bo'lgan neftni qayta ishlash, shaxta, elektrostantsiyalar kabi yirik inshootlarning qurilishini kreditlashni keltirish mumkin. Investitsiya loyihalari bo'yicha kredit risklari qo'yidagilardan iborat: korxona qurilishi uchun talab etiladigan materiallar shartlarining nomutanosibligi, kamomadi; loyiha amalga oshirilayotgan joydagi hukumat qarorlari, farmonlarining loyihani amalga oshirish jarayoniga to'sqinlik qilishi; kredit uchun belgilanadigan foiz stavkasiining keskin o'zgarishi va h.k..

Investitsion loyihalarni moliyalashtirishning ko'p yillik amaliyoti mobaynida loyihalarni hayotga tatbiq etish jarayonida texnik-iqtisodiy asosnomani kompleks ekspertiza qiluvchi banklar to'qnash kelayotgan qator muammolar mavjud. Ularni umumiy tarzda quyidagicha guruhlash mumkin:

- investitsiya loyihasini ekspertiza qilish bosqichida yuzaga keluvchi muammolar;
- investitsiya loyihasi bo'yicha moliyalashtirishni ochish bosqichida yuzaga keluvchi muammolar;

- amalda ishlayotgan investitsiya loyihalari bo'yicha muammolar.

Investitsiya loyihasini ekspertiza qilish bosqichida yuzaga keluvchi muammolar quyidagilarda namoyon bo'ladi. Loyiha ekspertiza bosqichida tadbirkorlar va investorlar haligacha loyiha bo'yicha sifatsiz va ishonchli bo'lmagan axborotlarni taqdim etishmoqda. Ular bilan birga TIAni ishlab chiquvchilar (loyihachi tashkilotlar, moliya institutlari) kuzatilishi mumkin bo'lgan risklar va ularni pasaytirish, mahsulot eksporti, ishlatilishi ko'zda tutilgan xom ashyo bo'yicha ma'lumotlarni, marketing tadqiqotlarini puxta ishlab chiqmagan. Bu hol loyihani ko'rib chiqish muddatini uzayishiga olib keladi. Bu muammoni hal etishda aniq tadbirlarning amalga oshirilishi muhim o'rin tutadi, ya'ni O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi ko'magi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi bo'linmalari, "O'zinvestloyiha", moliyalashtiruvchi banklar yordami hamda Hokimiyat bilan birgalikda amaliyotga quyidagilarni o'zida ifodalovchi hududlar bo'yicha aborot-tahliliy ma'lumotlar bazasi tizimini ishlab chiqqan holda tatbiq etish lozim deb hisoblaymiz:

- hududning (rayon, shahar) umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlari;
- mehnat, moddiy xom ashyo, ishlab chiqarish resurslari mavjudligi;
- hudud bo'yicha kichik biznes va tadbirkorlik rivojining salohiyati;
- turli xildagi mahsulotlar va xizmatlarning ichki bozor marketingi;
- hududning eksport imkoniyatlari.

Yuqoridagi ma'lumotlarning to'la hajmda bo'lishi salohiyatli investorlar va banklarga loyiha bo'yicha qaror qabul qilishni tezlashishiga olib keladi. Bundan tashqari, tashqi bozorni o'rganish maqsadida amaliy yordam sifatida maxsus ixtisoslashgan marketing kompaniyalarini yaratish maqsadga muvofiqdir. Bu kompaniyalar faqat maslahat-ko'mak vazifasini bajarib, tadbirkorlarga o'z amaliy tavsiyalarini berishi lozim bo'ladi. Investitsiya loyihalarida marketing xarajatlarini hisobga olishning alohida ahamiyatli tomoni shundaki, unga qilingan xarajatlar tarkibi va miqdorini tahlil etish xarajatlarning to'g'ri tashkil etilganligini va o'tkazilgan tadqiqotlarning samaradorligini aniqlashga imkon

beradi. Zero, ijobiy natijalarni aniqlash uchun keragicha qilingan har qanday marketing xarajatlari kelgusida qo'shimcha xarajatlarning amalga oshirilishining oldini olish bilan birga qo'shimcha foyda keltirishi bilan ham o'z samarasini ko'rsatadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholashning bozor mexanizmiga ustuvorlik berish, buning uchun qulay shart-sharoit yaratish (imtiyozlar va boshqalar), moliyalashtirishning turli usullaridan (masalan, lizing) faol foydalanish, aholi mablag'larini faol jalb qilish, foiz stavkalarini diversifikatsiyalash, yangi texnika-texnologiyalarni o'zlashtirishda chet el kreditlari va investitsiyalarini faol jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish qiymatini baholashning zaruriyati, eng avvalo, ishlab chiqarish kuvvatlarining jismoniy va ma'naviy eskirganligida, ularni qayta tiklashga yoki texnik jihatdan qayta jihozlashga yoki umuman yangilashga ehtiyoj mavjudligida; O'zbekistonning tabiiy boyliklarga boyligi va bu erda ko'plab qayta ishlovchi korxonalarni qurish imkoniyatining mavjudligida; aholi sonining o'sib borayotganligi (mehnat resurslari) va ishsizlik muammosini hal etishda ko'maklashishda; respublika eksport salohiyatini oshirishda namoyon bo'ladi.

"Investitsion loyiha" tushunchasi investitsion hujjatlar to'plami bo'lib, investitsiyalar bilan ta'minlangan, investitsiyalar jalb qilgan har qanday tadbirlar yig'indisi sifatida anglanadi. Investitsion loyihaning amalga oshirilish ko'lami, miqdori va dinamikasiga qarab mamlakatning iqtisodiy o'sish darajasi va holatini baholash mumkin.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholashni tadqiq etish natijasi ularning uch guruhga bo'linishini ko'rsatdi: investorlarning o'z resurslari (foйда, amortizatsiya ajratmasi, huquqiy shaxslar va fuqarolarning pul jamg'armalari va badallari, aktsiyalardan tushgan mablag'lar va boshqalar); investorlarning qarzga olgan resurslari (tijorat banklari kreditlar, obligatsiyali, sertifikatli, vekselli va boshqa xil qarzlilar, byudjet ssudalari); byudjetning investitsion resurslari (respublika va mahalliy byudjet mablag'lari).

O'zbekistonda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholashning xususiyatlaridagi muammolarni umumlashtirib, quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir:

- investitsion loyiha tashabbuskorlari duch kelayotgan asosiy muammolardan biri moliyaviy resurslarning etishmasligi va uni olish murakkabligi, moliyalashtirishning muqobil xususiyatlaridan (lizing kreditidan) faol foydalanilmasligi;

- investitsiya loyihalarni moliyalashtirish manbalari qiymatini baholashda kredit uchun garov predmetining etarli bo'lmashligi, kredit ta'minotini rasmiylashtirish jarayonlarining murakkabligi va buning natijasida ko'p vaqtning yo'qotilish;

- investitsion loyiha (mahsulotlar bozori) bo'yicha marketing izlanishlarining chuqur olib borilmasligi va bu loyihaning kelgusidagi pul oqimlari harakatining barqarorligiga hamda kreditni qaytarish manbasining ishonchsizligiga salbiy ta'sir etishi;

- xorijiy valyutada kreditlarni olishda loyiha umumiy qiymatida 25 foiz miqdoridagi qarz oluvchining o'z mablag'lari etishmasligi, tijorat banklarida kredit xujjatlarini shakllantirish jarayonining murakkabligi;

- ba'zi hollarda O'zbekiston fuqarolari o'z shaxsiy manfaatlari yo'lida hujjatlarni soxtalashtirish, oldindan xorijiy sheriklar bilan kelishilgan holda jismonan yoki ma'naviy eskirgan va zamon talablariga javob bermaydigan texnologiyalarni olib kelayotganliklari yohud ularning narxlarini oshirib yuborayotganliklari;

- investitsion loyiha amalga oshirish natijasida ko'zlangan daromadning (loyiha bo'yicha sof pul kiritimlari) o'z vaqtida kelib tushmaslik riskining mavjudligi va bunday risklarning omillari ishlab chiqarish jarayoni va mahsulotni sotish bilan, xaridolar bilan o'zaro hisob- kitoblar bilan, bozor kon'yunkturasining o'zgarishi yoki mavsumiy tebranishlar bilan bog'liq bo'lishi;

- investitsion loyiha tashabbuskorlarining (qarz oluvchi korxonalarning) kreditga qobilligini baholash ishlarining xolisona bo'lmashligi;

- investitsion loyihalarni kreditlash amaliyotida texnik-iqtisodiy asosnomasini ekspertiza qilish bosqichida hamda loyihani kreditlash va uning monitoringi davrida yuzaga keluvchi muammolar;

- hozirgi amaliyotda investitsion loyiha samaradorligini baholashda bilim va tajribalarning to'liq egallanmaganligi va o'zlashtirilmaganligi;

-investitsiya loyihasi samaradorligini baholash ishlari faqat banklar va ayrim sanoqli tashkilotlar tomonidan olib borilishi, boshqa manfaatdor sub'ektlarning esa hali bu yangilikni qabul qila olishga mos bilim va tushunchalari yo'qligi va uquvsizligi;

- xom ashyoni etkazib berish va mahsulotlarni sotish bozorlarida marketing tadqiqotlarning to'liq va xaqiqiy olib borilmasligi;

- investitsion loyihalarining texnik-iqtisodiy asosnomasida, ayrim hollarda, haqiqiy bo'lmagan, lekin yaxshi natijalar beruvchi raqam va ko'rsatkichlarning ko'rsatilishi; tahlil ishlarida bank mutaxassislarning o'zlari ham ko'p xatoliklarga yo'l qo'yishi, tahlil dasturini yaxshi tushunmasligi va kelib chiqish sabablarini o'zlari ham to'liq bilmasligi va h.k.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholash va ularning xususiyatlarini takomillashtirishda quyidagi taklif-tavsiyalardan foydalanish moliyalashtirish sifatini ta'minlash va ularning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga ko'maklashishi bilan ahamiyatlidir:

- investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholash va xususiyatlarini tadqiq qilishning xorij tajribalarini o'rganish hamda uning milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda tadqiq etish;

- tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholashni sifatini oshirish va ta'minlash maqsadida tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish;

- investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholashni soddalashtirish, ekspertiza muddatlarini sun'iy ravishda uzayib ketishlariga yo'l qo'maslik;

- investitsiya faoliyati ishtirokchilarining kreditga qobilligini baholash ishlari uning faoliyati samaradorligini, tovar va xizmat ko'rsatish bozoridagi, tarmokdagi holatini hisobga oluvchi uslubiyot bo'yicha o'tkazilishi, bu borada rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarning tajribalaridan keng foydalanish zarur;

- investitsiya loyihalarini texnik-iqtisodiy asosnomasi sifatli va puxta ishlab chiqish uchun avvalo investitsiya loyihalari tashabbuskorlarini o'qitish ishlarini tashkil etish va faollashtirish, loyihalarning texnik-iqtisodiy asosnomasini ekspertizadan o'tkazish uslubiyoti buxgalteriya hisobi standartlariga, soliqqa tortish va loyihaviy tahlil qoidalariga muvofiq bo'lishi, loyihaviy tahlilning milliy standartlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqlashtirish;

- investitsiya loyihalarini tashabbuskorlarining tijorat banklari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan munosabatlarini yanada rivojlantirish maqsadida bank tizimi bilan qarz oluvchilar manfaatini integratsiyalashda o'zaro munosabatlarni ikki tomonlama ishonch va shartnoma asosida qurish;

Yuqorida ko'rib o'tilgan vazifalarni imkon qadar tezroq va samarali o'z echimini topishi, nafaqat, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholashda, balki davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi holatini va aholining farovon hayot tarzini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari.

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni, 1998. 24 dekabr.

2. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonuni, 1998. 30 aprel.

3. O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi qonuni. 1998. 30 aprel.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 aprel "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotni real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2008 yil, 28 noyabr, PF-4058-son.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotni real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni 2008 yil, 18 noyabr, PF-4053-son.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 aprel PQ-56-sonli "Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o'zlashtirish jaryonini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori 2008 yil, 24iyul, PQ-927-son.

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Jalb etiladigan xorijiy kreditlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini berish tartibi to'g'risida"gi Qarori. 2003. 28 noyabr.

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori. 2007. 7 iyun, 110-son.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy investitsiyalar ishtrokidagi korxonalarga berilayotgan imtiyozlarning rag'batlantiruvchi rolini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, 2006 yil, 1may, 74-son.

12. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 19 may 2004 yildagi 1358-son bilan ro'yxatga olingan "Markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalari hisobidan "kaliti bilan" sharti asosida ob'ektlar qurilishini amalga oshirayotgan pudrat qurilish tashkilotlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risida"gi Nizom

13. Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Nizom, 1509-son, 2005. 20 avgust

14. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar uchun soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi to'g'risida Nizom, 2005 yil 28 noyabr, 1524-raqam

15. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T: «O'zbekiston», 2010. – 80 b.

16. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi – Toshkent. «O'zbekiston» - 2011 y. -49 b.

17. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. - 36 b.

18. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. – Toshkent: "O'zbekiston", 2013 yil. 64b.

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar.

19. Abdullaev Yo. va boshq. Bank ishi. O'quv qo'llanma. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2010. – B. 533.
20. Abdullaeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. - T.: Moliya, 2002.
21. Abdullaeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2006.
22. Банковские операции I, II, III часть, под. ред . Лаврушина О.И. - М.: Инфра-М, 2005. 301 с.
23. Банковское дело и финансирование инвестиций. Том I: Теория и концепция, часть I «Под редакцией Н. Брука» Всемирный банк реконструкции и развития. 1995 г. – 459с.
24. Вархин П.И. Инвестиции. Учебник – М.: Издательско-торговая корпорация “Дашков и К”, 2002.
25. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. I.f.d., professor A.V. Vaxabovning umumiy tahriri ostida. – T.: Moliya, 2010. - 328 bet.
26. Vahobov A.V., Jumaev N.X., Burxonov U.A. Xalqaro moliya munosabatlar. Darslik. - T.: Sharq 2003.
27. Игошин Н. В. Инвестиции. Организация управления и финансирование. - М.: 2000.
28. Игонина Л.Л. Инвестиция. – М.: Экономист, 2005. – 478 с.
29. Красавина Л. Международные валюты и кредитные отношения. - М. – Инфра-М, 2004.
30. Лаврушин И.О. Деньги, кредит банк (Под ред-2-е изд, перераб и доп. - М.: Финансы и статистика, 2003.
31. Радионов С.П., Радионов Н.В, Оценки инвестиция ресурс-М.: Алфа, 2001.
32. Ромаш М.В, Шевчук В.И. Финансирования и кредитования инвестиции.: Учебное пособие. - Минск: Книжный дом, 2004.
33. Сергеев И.В. Веретенникова Н.И. Организация и финансирования

инвестиции - М.: Финансы и статистика, 2003.

34. Uzoqov A., Nosirov E., Saidov R., Sultonov M. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va ularning monitoringi. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2006.

35. Шарп У., Александр Г., Бейли Дж. Инвестиции. Пер. с англ. – М.: Инфра, 2000.

36. G'ozibekov D. G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: Moliya, 2003.

III. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar.

37. Bernstein and Masky Cases. Cases in Financial statement reporting and Analysis. Second edition Boatsman, Griffin, Vickrey and Williams 1999.

38. Sost accounting (a managerial em phases) /USA. Mexico. Or sanada, 2001 god.

39. Kennet M.Morris and Allan M Siegel. Guide founderstanding money and investing. 2000 by lightbulb, press, Inc.

40. Project Financing. Peter K. Nevitt, Frank Fabozzi. 6-th edition. Euromoney Publications, 1995.

41. Guidelines for Projekt Evaluation, UNIDO, Vienna, 1972.

IV. Internet saytlari.

<http://www.cbu.uz> O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki

<http://www.mf.uz> O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi

<http://www.gov.uz> O'zbekiston Respublikasi Hukumati portali

<http://www.uza.uz> O'zbekiston Respublikasi Axborot agentligi

<http://www.agro.uz>. AOTB Agrobank sayti

<http://www.stat.uz> O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi